O‘ZBEKISTON REZPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

ABIRAYEV IMOMALI MELIBOYEVICH

HISOBLASH USULLARI FANIDAN AMALIY MASHG’ULOTLAR

(na’muna uchun yechimlar ko‘rsatilgan)

O‘quv qo‘llanma

TOSHKENT – 2023

UO‘K
KBK
A

Abirayev Imomali Meliboyevich
Hisoblash usullari fanidan amaliy mashg’ulotlar / o‘quv qo‘llanma /. – Toshkent, 2023. – 176 bet.

Taqrizchilar

I.Allakov – *Termiz Davlat universitetining “Algebra va geometriya” kafedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori*

B.Jo‘rayev – *DTPI “Oliy matematika” kafedrasi dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi*

Ushbu qo‘llanma hisoblash usullari fanidan laboratoriya-amaliy ishlarni bajarishga mo‘ljallangan. Qo‘llanma beshta bobdan iborat bo‘lib, hisoblash matematikasining taqribiy sonlarning xatoliklarini hisoblash, algebraik va transtsendent tenglamalarni taqribiy yechish, matritsaning xos son va xos vektorlarini topish, teskari matritsani topish, chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechish, funksiyani interpolyatsiyalash kabi bo‘limlarini o‘z ichiga olgan. Har bir bobda mavzularga mos nazariy qismi yoritilgan, ko‘plab misollar ishlab ko‘rsatilgan va mustaqil ishlash uchun ko‘plab misollar berilgan.

ISBN 978-9943-

KIRISH

Zamonaviy hisoblash texnikasi texnik va injenerlardan hisoblash matematikasining asosini bilishni va uni turli xil amaliy masalalarni yechishga tadbiq qila bilishini talab qiladi. Xalq xo‘jaligining turli sohasida ishlaydigan mutaxasislarni tayyorlashda asosiy fanlardan biri hisoblash matematikasi hisoblanadi.

Ushbu qo‘llanma hisoblash matematikasidan laboratoriya-amaliy ishlarni bajarishga mo‘ljallangan. Qo‘llanma beshta bobdan iborat bo‘lib, hisoblash matematikasining taqribiy sonlarning xatoliklarini hisoblash, algebraik va transtsendent tenglamalarni taqribiy yechish, matritsalar algebrasi, chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini yechish, funksiyani interpolyatsiyalash kabi bo‘limlarini o‘z ichiga olgan. Har bir bobda mavzularga mos nazariy qismi qisqacha berilgan, ko‘plab misollar ishlab ko‘rsatilgan va mustaqil ishlash uchun ko‘plab misollar berilgan.

Qo‘llanmani yozishda quyidagi adabiyotlardan foydalanildi:

1. Israilov M.I. Hisoblash metodlari. I QISM. T. “O‘qituvchi”, 1988. 400 b.;

2. Abdulhamidov A.U., Xudoynazarov S. Hisoblash usullaridan mashqlar va laboratoriya ishlari. T.: O‘zbekiston, 1995. -223 b.

3. Zinkov A.V. Chislenni’e metodi’. -Ekaterinburg:Izd-vo Ural.Un-ta, 2016. -124 s.

4. Kuvayskova Yu.E. Chislennie metodi. Laboratorniy praktikum.: -Ulyanovsk.:UlGTU, 2014.-113 s.

5. H.De Sterck, P.Ullrich. Introduction to computational mathematics. Department of Applied Mathematics University of Waterloo. March 20 th, 2006.

Qo‘llanmani qo‘lyozma holida o‘qib chiqib, uning mazmunini yaxshilash yuzasidan o‘z fikrlarini bildirganlari uchun Toshkent davlat transport universiteti “Informatika va kompyuter grafikasi” kafedrasi mudiri fizika-matematika fanlari doktori, professor X.M.Shodimetovga, Termiz Davlat universitetining “Algebra va geometriya” kafedrasi professori, fizika-matematika fanlari doktori I.Allakovga o‘z minnatdorchiligimni bildiraman.

I BOB. TAQRIBIY SONLARNING XATOLARINI HISOBLASH

1.1-§. TAQRIBIY SONLARNING XATOLARINI HISOBLASH

Bizga A aniq son va uning taqribiy qiymati a son berilgan bo‘lsin. A aniq sonni uning taqribiy qiymati a son bilan almashtirganda hosil bo‘ladigan xatoliklarni ko‘rib chiqaylik.

A aniq sonni a taqribiy qiymati bilan almashtirilganda ma’lum xatolikka yo‘l qo‘yiladi. Bu xatolik A-a ga teng [1].

Agar $A - a > 0$ bo‘lsa, a soni kami bilan (yoki chapdan) yaqinlashadi; agar $A - a < 0$ bo‘lsa, a soni ortig‘i bilan (yoki o‘ngdan) yaqinlashadi deyiladi. Masalan, 1,73 soni $\sqrt{3}$ ga chapdan yaqinlashadi, 1,74 soni $\sqrt{3}$ ga o‘ngdan yaqinlashadi. Boshqacha aytganda, 1,73 soni $\sqrt{3}$ ga kami bilan taqribiy qiymat, 1,74 soni esa $\sqrt{3}$ ga ortig‘i bilan taqribiy qiymat. Chunki 1,73$< \sqrt{3} = 1{,}7320508 ... < 1{,}74$. Xuddi shunday 3,14 soni π uchun kami bilan taqribiy qiymat, chunki $\pi > 3.14$; 2,72 soni e uchun ortig‘i bilan taqribiy qiymat chunki $e < 2{,}72$.

1-ta’rif: a taqribiy sonning absolyut xatosi deb $\Delta(a) = |A - a|$ ga aytiladi.

A ning aniq qiymati noma’lum bo‘lgani uchun $|A - a|$ absolyut xatolik ham noma’lum bo‘ladi. Shuning uchun chegaraviy absolyut xatolik tushunchasi kiritamiz.

2-ta’rif: a taqribiy sonning chegaraviy absolyut xatoligi deb, bu sonning absolyut xatoligidan kichik bo‘lmagan Δ songa aytiladi:

$$|A - a| \leq \Delta.$$

Bundan $a - \Delta \leq A \leq a + \Delta$.

1-misol. π sonini almashtiradigan $a = 3{,}14$ sonining chegaraviy absolyut xatoligini toping.

Yechish: $3{,}14 < \pi < 3{,}15$ bo‘lgani uchun $|\pi - a| < 0{,}01$. Demak, chegaraviy absolyut xatolik $\Delta = 0{,}01$ ga teng.

Taqribiy sonning absolyut xatoligi A aniq sonni uning a taqribiy qiymati bilan yaqinlashish aniqligini yetarlicha tavsiflay olmaydi. Masalan, $\Delta = 0{,}5\ m$ absolyut xatolik xonaning bo'yini o'lchashda haddan tashqari katta xatolik hisoblanadi, uy qurish uchun yer maydonini ajratishda yo'l qo'yish mumkin bo'lgan xatolik, shaharlar orasidagi masofani o'lchashda esa sezilmaydigan xatolik.

O'lchash yoki hisoblash natijasi aniqligining haqiqiy ko'rsatgichi uning nisbiy xatoligidir.

3-ta'rif: a taqribiy sonning nisbiy xatosi deb

$$\delta(a) = \frac{|A-a|}{|a|}$$

ga aytiladi.

4-ta'rif: a taqribiy sonning chegaraviy nisbiy xatoligi deb, bu sonning nisbiy xatoligidan kichik bo'lmagan δ songa aytiladi:

$$\frac{|A-a|}{|a|} \le \delta \quad \text{yoki } \delta = \frac{\Delta}{|a|}.$$

Bundan $\Delta = |a|\delta$.

Absolyut xato ismli miqdor bo'lib, nisbiy xato ismsiz miqdordir. Nisbiy xato ko'pincha foiz(%) va promillya (‰)larda ifodalanadi (bir promillya foizning o'ndan bir qismiga teng).

Masalan, 3,14 soni π sonining taqribiy qiymati. Uning absolyut xatoligi 0,00159 ga teng; chegaraviy absolyut xatolik $\Delta = 0{,}0016$ ga teng, chegaraviy nisbiy xatolik esa

$$\delta = \frac{\Delta}{3,,14} = 0{,}00051 = 0{,}051\%$$

ga teng deb hisoblash mumkin.

1.2-§. ABSOLYUT VA NISBIY XATOLIKLARNING XOSSALARI

Faraz qilaylik a va b lar ikkita taqribiy sonlar bo'lsin. U holda quyidagilar o'rinli:

Absolyut xatoliklarning xossalari:

$$\Delta(a+b) = \Delta a + \Delta b\ ,$$
$$\Delta(a-b) = \Delta a + \Delta b\ ,$$
$$\Delta(a \cdot b) = a\Delta b + b\Delta a\ ,$$

$$\Delta\left(\frac{a}{b}\right) = \frac{a\Delta b + b\Delta a}{b^2}.$$

Nisbiy xatoliklar xossalari:

$$\delta(a+b) = \frac{\Delta(a+b)}{|a+b|} = \frac{\Delta a + \Delta b}{|a+b|} = \frac{|a|}{|a+b|}\cdot\frac{\Delta a}{|a|} + \frac{|b|}{|a+b|}\cdot\frac{\Delta b}{|b|}$$

$$= \frac{|a|}{|a+b|}\delta a + \frac{|b|}{|a+b|}\delta b,$$

$$\delta(a-b) = \frac{\Delta(a-b)}{|a-b|} = \frac{\Delta a + \Delta b}{|a-b|} = \frac{|a|}{|a-b|}\cdot\frac{\Delta a}{|a|} + \frac{|b|}{|a-b|}\cdot\frac{\Delta b}{|b|}$$

$$= \frac{|a|}{|a-b|}\delta a + \frac{|b|}{|a-b|}\delta b, \delta(a\cdot b) = \delta\left(\frac{a}{b}\right) = \delta a + \delta b,$$

$$\delta(a^k) = k\delta a.$$

5-ta'rif: Sonning yozilishidagi , chapdan birinchi noldan farqli raqamidan boshlab, hamma raqamlari ***ma'noli raqamlar*** deyiladi.

1-misol. 0,00015 sonida ikkita *ma'noli raqam*, 12,150 sonining hamma raqamlari *ma'noli raqam* bo'ladi .

Sonning kasr qismining oxirgi xonalariga qo'shimcha nollar yozib yoki nollarni tashlab sonning ma'noli raqamlarini ko'paytirish yoki kamaytirish mumkin. Bu bilan berilgan son o'zgarmaydi.

6-ta'rif: a sonini *yaxlitlash* deb, uni kamroq ma'noli raqamga ega bo'lgan b soni bilan almashtirishga aytiladi.

2-misol. $a = 0{,}9445$ sonini verguldan keyin ikki xonagacha yaxlitlasak $a \approx 0{,}94$ son hosil bo'ladi.

7-ta'rif: Yaxlitlash natijasida olingan a taqribiy sonning Δ *chegaraviy absolyut xatoligi* a taqribiy sonning yozuvidagi oxirgi xona birligining yarmiga teng.

Misollar: 1) $a = 0{,}9445$ taqribiy sonning chegaraviy absolyut xatoligi $\Delta = 0{,}00005$.

2) $a = 0{,}817$ taqribiy sonning chegaraviy absolyut xatoligi $\Delta = 0{,}0005$.

8-ta'rif: Agarda a sonning absolyut xatosi shu ma'noli raqam turgan xonaning bir birligadan ortiq bo'lmasa, a taqribiy sonning shu ma'noli raqami keng ma'noda ishonchli raqam deyiladi (agarda a sonning absolyut xatosi shu ma'noli raqam turgan xonaning bir birligining yarmidan ortiq bo'lmasa, a taqribiy sonning shu ma'noli raqam tor ma'noda ishonchli raqam deyiladi).

Umuman olganda: Agar $\Delta(a) \le \omega q^{n-r+1}$ tengsizlik bajarilsa, u holda taqribiy

$$a = \alpha_1 q^n + \alpha_2 q^{n-1} + \cdots + \alpha_m + \cdots \quad \left(\frac{1}{2} \le \omega \le 1, \qquad q - \text{sanoq sistema asosi.}\right)$$

sonda α_r raqam *ishonchli raqam* deyiladi, aks holda α_r *shubhali raqam* deyiladi.

Ko'rinib turubdiki, α_r raqam ishonchli raqam bo'lsa, undan oldingi raqamlarning barchasi ham ishonchli raqam bo'ladi. Demak, ishonchli raqamlar orasida har doim oxirgisi mavjud.

1-qoida: Agar a soni n ta ishonchli raqamga ega bo'lsa, u xolda uning δ nisbiy xatoligi

$$\delta(a) \le \frac{1}{k}\left(\frac{1}{10}\right)^{n-1} \qquad (1.1)$$

tengsizlikni qanoatlantiradi, bu yerda k shu a sonning birinchi ma'noli raqami.

2-qoida: Nisbiy xatoligi δ bo'lgan a sonning n ta raqami ishonchli bo'lsa, u holda n ushbu

$$(1+k)\delta \le \left(\frac{1}{10}\right)^{n-1} \qquad (1.2)$$

tengsizlikni qanoatlantiradigan eng katta tub sondir.

3-qoida: Agar taqribiy a sonning ishonchli raqamlari soni ikkitadan ko'p bo'lsa, hisoblash ishlarida

$$\delta(a) = \frac{1}{2k}\left(\frac{1}{10}\right)^{n-1} \qquad (1.3)$$

deb olish mumkin.

1.3-§. ARIFMETIK AMALLAR VA LOGARFMLASHNING XATOSI

1-teorema: Bir xil ishorali qo'shiluvchilar yig'indisining absolyut xatosi qo'shiluvchilar absolyut xatolarining yig'indisiga teng.

2-teorema: Bir xil ishorali taqribiy sonlarni qo'shish natijasida hosil bo'lgan yig'indining nisbiy xatosi qo'shiluvchilarning eng katta va eng kichik nisbiy xatolari orasida yotadi.

1-qoida: Har xil aniqlikdagi sonlarni qo‘shish uchun:

a) O‘nli raqamlari boshqalaridagiga nisbatan eng kam bo‘lgani ajratilib, ularni o‘zgarishsiz qoldirish kerak;

b) Qolgan sonlarda esa bitta yoki ikkita ortiqcha raqamlar qoldirib, ajratilgan sonlarga nisbatan yaxlitlash kerak;

c) Hamma saqlangan xonalarni hisobga olgan holda berilgan sonlarni qo‘shish kerak;

d) Hosil bo‘lgan sonlarni bitta yoki ikkita xonaga yaxlitlash keak.

3-teorema: Taqribiy sonlar ko‘paytmasining nisbiy xatosi ko‘paytuvchilar nisbiy xatolarining yig‘indisiga teng.

2-qoida: Taqribiy sonlarni ko‘paytirish va bo‘lish uchun:

1) ko‘paytirish va bo‘lish kerak bo‘lgan sonlar ichidan ma’noli raqamlari soni eng kami ajratib olinadi;

2) qolgan sonlarni ajratilgan sondagi ma’noli raqamlar sonidan bitta ko‘p ma’noli raqamgacha yaxlitlanadi;

3) saqlangan ma’noli raqamni hisobga olgan holda ko‘paytirish va bo‘lish amali bajariladi;

4) ajratib olingan eng kam ma’noli raqamlari soniga teng miqdorda ma’noli raqam olinadi.

Misol. Hamma raqamlari ishonchli bo‘lgan $a = 3{,}5$ va $b = 83{,}368$ taqribiy sonlarning ko‘paytmasini toping.

Yechish: Birinchi sonda ikkita ma’noli raqam, ikkinchisida beshta ikkita ma’noli raqam bor. Ikkinchi sonni uchta ma’noli raqamgacha yaxlitlaymiz: $b \to 83{,}4$. Yaxlitlagandan keyin ko‘paytirishni bajaramiz: $ab = 3{,}5 \cdot 83{,}4 = 291{,}9 = 2{,}9 \cdot 10^2$.

4-teorema: O‘nli logarifmning absolyut xatosi argument nisbiy xatosining yarmiga teng.

1.4-§. FUNKSIYANI HISOBLASHDAGI XATOLIKLARNI BAHOLASH

Bizga $y = f(x)$ funksiya berilgan bo‘lib, argumentning taqribiy qiymati a bo‘lsin va uning absolyut xatosi Δa bo‘lsin. U holda funksiyaning absolyut xatosi sifatida uning orttirmasini yoki differensialini olish mumkin

$$\Delta y \approx dy, \Delta y = |f'(x)| \cdot \Delta a \,. \qquad (1.4)$$

n o‘zgaruvchili funksiyalar uchun quyidagicha bo‘ladi:

$$\Delta y = \left| f'_{x_1}(x_1, \dots, x_n) \right| \cdot \Delta x_1 + \dots + \left| f'_{x_n}(x_1, \dots, x_n) \right| \cdot \Delta x_n \,,$$

bunda $\Delta x_1, \dots, \Delta x_n$ lar $x_1, \dots, x_n$ larning mos absolyut xatoliklari.

$$\delta y = \frac{\Delta y}{|f(x_1, \dots, x_n)|} \ - nisbiy\ xatolik.$$

Misol. $y = \sin x$, a $-$argument x ning absolyut xatoligi.

Yechish: (1.4) formuladan

$$\Delta y = \Delta(\sin x) = |\cos a| \cdot \Delta a$$

bo‘ladi.

1.5-§. TIPIK MISOLLAR YECHISH

Yuqorida aytilgan qoidalardan foydalanib misollar yechamiz [2].

1-misol. 0,307 taqribiy soni yozilishiga ko‘ra 10^{-3} gacha (ya’ni uchta ma’noli raqamgacha) aniqlikka ega. Shu son 10^{-4} gacha aniqlik bilan berilganda, uni 0,3070 ko‘rinishda, 10^{-2} gacha aniqlik bilan berilganda esa oxirgi «7» raqami ishonchsiz bo‘lib qoladi va shu sabab 0,307 son 0,31 ko‘rinishda yoziladi.

2-misol. $\alpha = (5{,}7 \pm 0{,}08) - (5{,}6 \pm 0{,}06)$ ni hisoblaylik.

Yechish: $5{,}7 - 5{,}6 = 0{,}1$, $\Delta = 0{,}08 + 0{,}06 = 0{,}14$, ya’ni ayirma 0,1 ga teng bo‘lgani holda, uning absolyut xatosi o‘zidan ham katta (0,14) bo‘lmoqda. Javob qoniqarsiz. Komponentalar aniqroq olinish kerak. Masalan, ularning absolyut xatosi $\pm 0{,}025$ ga teng bo‘lganda, ayirmaning xatosi $\Delta = 0{,}05$ bo‘lib, unda bitta ishonchli raqam, xato $\pm 0{,}0001$ bo‘lganda, ayirmaning xatosi $\Delta = 0{,}0002$ bo‘lib, unda uchta ishonchli raqam mavjud bo‘lardi.

3-misol. *x*=7,3344 sonning hamma raqamlari ishonli raqam uni uchta ma’noli raqamgacha yaxlitlang. Topilgan $x_1 \approx x$ sonning chegaraviy absolyut va chegaraviy nisbiy xatosini aniqlang. x_1 sonning yozuvidagi ishonchli raqamlarni ko‘rsating(tor va keng ma’noda)

Yechish:

a) berilgan sonni uchta ma'noli raqamgacha yaxlitlasak $x_1 = 7{,}33$ son hosil bo'ladi,

b) absolyut xatosi: $\Delta x_1 = |x - x_1| = |7{,}3344 - 7{,}33| = 0{,}0044$,

c) chegaraviy absolyut xato:$\Delta_{x_1} = 0{,}005$,

d) chegaraviy nisbiy xato: $\delta_{x_1} = \frac{\Delta_{x_1}}{|x_1|} = \frac{0{,}005}{7{,}33} = 0{,}0007 = 0{,}07\%$

e) endi $x_1 = 7{,}33$ sonning tor va keng ma'nodagi ishonchli raqamlarini ko'rsatamiz:

$\Delta x_1 = 0{,}005 \leq 0{,}005$ bo'lgani uchun x_1 sonning barcha raqamlari tor ma'noda ishonchli raqam bo'ladi;

$\Delta x_1 = 0{,}005 \leq 0{,}01$ bo'lgani uchun x_1 sonning barcha raqamlari keng ma'noda ishonchli raqam bo'ladi.

4-misol. Agar $\alpha = 47{,}542$ taqribiy sonning chegaraviy nisbiy xatoligi $\delta = 0{,}1\ \%$ bo'lsa, uning ishonchli raqamlari sonini aniqlang.

Yechish: (1.1) tengsizlikni tuzamiz. αsondagi birinchi raqam 4 ga teng, demak $k = 4$. $\delta = 0{,}1\ \% = \frac{1}{10} \cdot \frac{1}{100} = \frac{1}{1000}$.

Bundan ko'rinadiki

$$(1+k)\,\delta = 5 \cdot \frac{1}{1000} = 5 \cdot \left(\frac{1}{10}\right)^3 \leq \left(\frac{1}{10}\right)^{n-1}.$$

Yuqoridagi tengsizlik to'g'ri bo'lishi uchun $n - 1 = 2$ yoki $n = 3$ bo'lishi kerak. Demak, $\alpha = 47{,}542$ soni uchta ishonchli raqam: 4, 7 va 5 ga ega.

5-misol. $y = lnx$ funksiyaning chegaraviy absolyut xatoligini toping.

Yechish: $y = lnx$ funksiya uchun (1.4) formuladan foydalanamiz:

$$y' = \frac{1}{x}.$$

U holda

$$\Delta y = \Delta x |y'| = \Delta x \left|\frac{1}{x}\right| = \frac{\Delta x}{|x|} = \delta_x \ .$$

Demak, logarifmning chegaraviy absolyut xatoligi argumentning chegaraviy nisbiy xatoligiga teng.

6-misol. $y = x^n$ funksiyaning chegaraviy nisbiy xatoligini toping.

Yechish:: $y' = nx^{n-1}$ bo‘lganligi uchun (1.3) formulaga asosan quyidagini hosil qilamiz:

$$\delta_y = \left| x \cdot \frac{nx^{n-1}}{x^n} \right| \delta_x = |n| \delta_x \, .$$

Demak darajaning chegaraviy nisbiy xatoligi δ_y asosning chegaraviy nisbiy xatoligi δ_x ni daraja ko‘rsatkichning absolyut qiymatiga ko‘paytirilganiga teng.

7-misol. $a = 3{,}5$ va $b = 83{,}368$ taqribiy sonlarning ko‘paytmasini barcha ishonchli raqamlarigacha toping.

Yechish: Birinchi sonda ikkita ma’noli raqam, ikkinchisida esa beshta. Ikkinchi sonni uchta ma’noli raqamgacha yaxlitlaymiz: $b \to 83{,}4$. Keyin sonlarni ko‘paytiramiz: $ab = 3{,}5 \cdot 83{,}4 = 291{,}9 = 2{,}9 \cdot 10^2$. Eng kam ma’noli ramga ega bo‘lgan ko‘paytuvchida nechta ma’noli raqam bo‘lsa, oxirgi natijaga ham o‘shancha ma’noli raqam olish kerak.

8-misol. $a = 8{,}6;\ b = 8{,}60;\ c = 3200;\ d = 3{,}2 \cdot 10^3$ taqribiy sonlari berilgan. Xar bir sonning chegaraviy absolyut xatoligini ko‘rsating.

Yechish: a soni uchun xatolik $\Delta_a^* \leq 0{,}1$, b soni uchun xatolik $\Delta_b^* \leq 0{,}01$, c soni uchun xatolik $\Delta_c^* \leq 1$, d soni uchun xatolik $\Delta_d^* \leq 0{,}1 \cdot 10^3$.

«Odatdagi» matematika nuqtai nazaridan a va b, c va d sonlari bir-biriga teng, «hisoblash» matematikasi nuqtai nazaridan a va b, c va d sonlar turlicha: absolyut xatolikdan ko‘rinadiki b soni a soniga nisbatan aniqroq c soni esa d dan aniqroq.

9-misol. Quyidagi taqribiy sonlarning yig’indisini toping: $a = 414{,}8;\ b = 0{,}025; c = 24{,}17; d = 0{,}000326.$ Bu yerda barcha raqamlar ishochli.

Yechish: a sonida verguldan keyin bitta raqam bo‘lgani uchun, qolgan sonlarni verguldan keyin ikkita raqamgacha yaxlitlaymiz: $b \to 0{,}02;\ c \to 24{,}17;\ d \to 0{,}00.$ Endi yaxlitlangan sonlarni qo‘shib chiqamiz: 414,8 + 0,02 + 24,17 + 0,00 = 438,99. Hosil bo‘lgan natijani verguldan keyin birinchi raqamgacha yaxlitlab oxirgi javobni olamiz. Javob: 439,0.

10-misol. O‘zgarmaslarning ta’rifi bo‘yicha Xalqaro Komitetining fan va texnologiyalar uchun oxirgi (2015y.) ta’rifiga asosan gravitasion doimiy

$$\gamma = (6{,}67259 \pm 0{,}00085) \cdot 10^{-11} m^3 \cdot kg^{-1} \cdot s^{-2} \, ,$$

electron zaryadi esa

$$e = (1{,}60217733 \pm 0{,}00000049) \cdot 10^{-19} Kl.$$

Bu fundamental fizik doimiylarni aniqlik darajasini taqqoslang.

Yechish: Gravitasion doimiy uchun chegaraviy nisbiy xatolik

$$\delta_{\gamma}^{*} = \frac{0{,}00085}{6{,}67259} = 1{,}27 \cdot 10^{-4} \, ,$$

ga teng, electron zaryadning nisbiy xatoligi esa

$$\delta_{e}^{*} = \frac{0{,}00000049}{1{,}60217733} = 3{,}1 \cdot 10^{-7} \, .$$

Shunday qilib, oxirgi nisbiy xatolik oldingisidan uch tartibga kam, ya’ni electron zaryad gravitasion doimiyga nisbatan ancha aniqroq aniqlangan.

11-misol. Agar π soni o‘rniga 3,14 desak, chegaraviy nisbiy xatolik qanday bo‘ladi?

Yechish: (1.3) formuladan $k = 3 \; va \; n = 3$ bo‘lgani uchun

$$\delta(\pi) = \frac{1}{2 \cdot 3}\left(\frac{1}{10}\right)^{3-1} = \frac{1}{600} = 0{,}00166666 \ldots$$

bo‘ladi. Demak $\delta = 0{,}002$ desak bo‘ladi.

12-misol. $a = \sqrt{22}$ da nechta raqam olsak, nisbiy xatolik $\delta(a) = 0{,}001$ bo‘ladi?

Yechish: $\delta(a) \leq \frac{1}{k}\left(\frac{1}{10}\right)^{n-1}$ formuladan foydalanamiz. $a = \sqrt{22}$ ning birinchi ma’noli raqami $k = 4$ va $\delta(a) = 0{,}001$ bo‘lgani uchun

$$0{,}001 \leq \frac{1}{4 \cdot 10^{n-1}}$$

bo‘lib, bundan $10^{n-1} \leq 250, n \leq 4$ bo‘ladi. Agar $\sqrt{22}$ da 4 ta raqam olsak, uning nisbiy xatoligi 0,001 bo‘ladi.

13-misol. $a = 15342$ taqribiy sonning nisbiy xatoligi 0,1% bo‘lsa, uning nechta raqami ishonchli bo‘ladi?

Yechish: $\delta(a) = \frac{0,1\%}{100\%} = 0,001,\ \Delta(a) = a \cdot \delta(a) = 15342 \cdot 0,001 \cong 15,3 = 1,53 \cdot 10,$

$\Delta(a) \leq \frac{1}{2} 10^{m-n+1}$ bo‘lsa, a sonining birinchi n ta ma’noli raqami ishonchli bo‘lar edi. Bu yerda $m = 4$ bo‘lganligi uchun $1,53 \cdot 10 \leq \frac{1}{2} 10^{4-n+1}$ dan $n = 3$ desak bo‘ladi. Demak, $a = 15342$ ning 3 ta raqami ishonchli, ya’ni berilgan sonni $a = 153 \cdot 10^2$ deb yozish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

14-misol. Agar $x_1 = 23,3$ va $x_2 = 56,73$ bo‘lib, ulardagi barcha raqamlar ishonchli bo‘lsa, $U = x_1 \cdot x_2$ ko‘paytmada nechta ishonchli raqam bo‘ladi?

Yechish: $\Delta(x_1) = \frac{1}{2} 10^{1-3+1} = 0,05$, $\Delta(x_2) = \frac{1}{2} 10^{1-4+1} = 0,005.$

Bundan, $\delta(u) = \frac{\Delta(x_1)}{x_1} + \frac{\Delta(x_2)}{x_2} = \frac{0,05}{12,2} + \frac{0,005}{73,56} = 0,0042, u = 897,432$ bo‘lib, $\Delta(u) = u \cdot \delta(u) = 897,432 \cdot 0,0042 = 3,6$ bo‘ladi. $\Delta(u) \leq \frac{1}{2} 10^{m-n+1}$ tengsizlikda $m = 2$ bo‘lib, $n = 2$ ekanligi kelib chiqadi. Demak u kamida 2 ta ishonchli raqamga ega va uni $u = 874 \pm 4$ yozish maqsadga muvofiqdir.

15-misol. Agar shar diametri $d = 3,7\ sm\ \pm 0,5 sm$ bo‘lsa, shar hajmi $V = \frac{1}{6}\pi d^3$ ning chegaraviy absolyut va chegaraviy nisbiy xatoligi qanday bo‘ladi?

Yechish: $\frac{\delta V}{\delta \pi} = \frac{1}{6} d^3 = 8,44;\ \frac{\delta V}{\delta d} = \frac{1}{2}\pi d^2 = 21,5.$

$$\Delta(V) = \frac{\delta V}{\delta \pi} \cdot |\Delta \pi| + \frac{\delta V}{\delta d} \cdot |\Delta d| = 8,44 \cdot 0,0016 + 21,5 \cdot 0,05$$
$$= 0,013 + 1,075 == 1,088 .$$

$\Delta(V) \cong 1,1\ sm^3$.

Demak, $V = \frac{1}{6}\pi d^3 = 27,4\ sm^3,$

$\delta(V) = \frac{1,088}{27,4} = 0,0397 \cong 0,04$; $\delta(V) = 4\%.$

$\Delta(V) = 1,1\ sm^3$; $\delta(V) = 4\%.$

Misol 16. To‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlari $a \cong 5m,\ b \cong 200m$ bo‘lsin. $\Delta(S) = 1\ m^2$ dan oshmasligi uchun $\Delta(a) = \Delta(b)$ qanday bo‘lishi kerak?

Yechish: $S = a \cdot b,\ \Delta(S) = b \cdot \Delta(a) + a \cdot \Delta(b) = \Delta(a)(a + \mathrm{b})$.

$$\Delta(a) = \frac{\Delta(S)}{a + \mathrm{b}} = \frac{1}{205} < 0{,}005\,,\ \ \Delta(a) = 5\ mm.$$

Javob : $\Delta(a) = \Delta(b) = 5\ mm$.

Misol 17. Berilganlar asosida $Z = \frac{ab-4c}{\ln a+b}$ ni hisoblang bunda $a = 12{,}762\,, b = 0{,}4534\,,\ s = 0{,}290$.

Yechish: Berilganlar $\Delta a = 0{,}0005, \Delta b = 0{,}00005\,,\ \Delta s = 0{,}0005$ (ya’ni $a, b\ va\ s$ larning barcha raqamlari tor ma’noda ishonchli) chegaraviy absolyut xatoga ega.

a) $a \cdot b$ ni hisoblaymiz. $a \cdot b = 12{,}762 \cdot 0{,}290 = 5{,}786\,290\,8$. Endi chegaraviy absolyut xatosini hisoblaymiz:

$\Delta(a \cdot b) = b \cdot \Delta a + a \cdot \Delta b = 0{,}4534 \cdot 0{,}0005 + 12{,}762\ \cdot 0{,}00005 = 0{,}000865 \approx 0{,}00087$.

Topilganlarga ko‘ra , $a \cdot b = 5{,}786\,290\,8$ ko‘paytma verguldan keyin tor ma’noda ikkita ishonchli raqamga ega. Bu qiymatni bitta ortiqcha xona bilan yaxlitlaymiz 5,78$\underline{6}$ (ortiqcha xona raqami tagiga chizib ajratilgan).

b) $4 \cdot c = 4 \cdot 0{,}290 = 0{,}160$ ni hisoblaymiz. Endi chegaraviy absolyut xatosini hisoblaymiz: $\Delta(4 \cdot c) = |(4c)'| \cdot \Delta c = 4 \cdot 0{,}0005 = 0{,}002$.

Topilganlarga ko‘ra , $4 \cdot c = 0{,}160$ ko‘paytma verguldan keyin tor ma’noda ikkita ishonchli raqamga ega. Bu qiymatni bitta ortiqcha xona bilan yaxlitlaymiz 0,16$\underline{0}$ (ortiqcha xona raqami tagiga chizib ajratilgan).

c) $a \cdot b - 4 \cdot c = 5{,}786\underline{3} + 0{,}16\underline{0} = 4{,}6263$. Endi chegaraviy absolyut xatosini hisoblaymiz:

Taqribiy sonlarni qo‘shganda va ayirganda yig‘indidagi o‘nli xonalar sonini qo‘shiluvchilarda bor bo‘lgan o‘nli xonalar soning eng kamiga teng qilib olinadi.

Bu qoidaga asosan: $5{,}786\underline{3}$ sonda uchta o‘nli xona (verguldan keyin) raqam; $1{,}16\underline{0}$ sonda ikkita o‘nli xona (verguldan keyin) raqam bor.

Demak, $a \cdot b - 4 \cdot c = 4{,}6263$ natijani ikkita o‘nli raqamgacha yaxlitlab olish kerak (ya’ni 4,63). Bitta ortiqcha raqami bilan olsak $a \cdot b - 4 \cdot c =$4,62$\underline{6}$.

d) $\ln 12{,}762 = 2{,}546472005446$. Endi chegaraviy absolyut xatosini hisoblaymiz:

$\Delta(\ln a) = |(\ln a)'| \cdot \Delta a = \frac{1}{12{,}762} \cdot 0{,}0005 = 0{,}000039178\,81 \approx 0{,}000040.$

Hosil qilingan natija verguldan keyin tor ma’noda to‘rtta ishonchli raqamga ega. Bu qiymatni bitta ortiqcha xona bilan yaxlitlaymiz $2{,}5464\underline{7}$ (ortiqcha xona raqami tagiga chizib ajratilgan).

e) $\ln a + b = 2{,}54647 + 0{,}4534 = 2{,}99987$. Endi chegaraviy absolyut xatosini hisoblaymiz: $\Delta(\ln a + b) = \Delta(\ln a) + \Delta b = 0{,}000040 + 0{,}00005 = 0{,}00009$

Hosil qilingan natija verguldan keyin tor ma’noda uchta ishonchli raqamga ega. Bu qiymatni bitta ortiqcha xona bilan yaxlitlaymiz 2,999 $\underline{9}$(ortiqcha xona raqami tagiga chizib ajratilgan).

f) Z ni hisoblaymiz.

$$Z = \frac{ab - 4c}{\ln a \ + b} = \frac{4{,}626}{2{,}9999} = 1{,}5420514.$$

Endi chegaraviy absolyut xatosini hisoblaymiz:

$$\Delta Z = \frac{(ab - 4c)\Delta(\ln a + b) + \ln\,(\,a + b)\Delta(ab - 4c)}{(\ln a + b)^2} = \frac{4{,}626 \cdot 0{,}00009 + 2{,}9999 \cdot 0{,}0029}{2{,}9999^2} =$$

$= 0{,}00101296 \approx 0{,}0011.$

Mustaqil yechish uchun misollar

I. Quyida berilgan (1-17) misollarda quyida aytilgan topshiriqlarni bajaring:

a) Qaysi tengliklar aniqroq.

b) Ishonchli raqamlarni qoldirib, shubxali raqamlarni yaxlitlang. Natijaning absolyut xatoligini toping.

c) Hamma raqami ishonchli bo‘lgan taqribiy sonlarning chegaraviy absolyut va nisbiy xatoligini toping.

1. $a)\ 14/17 = 0.824, \sqrt{53} = 7.28;\ b)\ 23.3748, \delta = 0.27\%;\ d) = 0.645.$
2. $a)\ 7/3 = 2.33, \sqrt{58} = 7.62;\ b)\ 13.5726 \pm 0.0072;\ d)\ 4.8556.$
3. $a)\ 27/31 = 0.871, \sqrt{42} = 6.48;\ b)\ 0.088748, \delta = 0.56\%;\ d)\ 71.385.$
4. $a)\ 23/9 = 2.56, \sqrt{87} = 9.33;\ b)\ 4.57633 \pm 0.00042;\ d)\ 6.8346.$
5. $a)\ 6/7 = 0.857, \sqrt{41} = 6.40;\ b)\ 46.7843, \delta = 0.32\%;\ d)\ 7{,}38.$
6. $a)\ 12/7 = 1.71, \sqrt{47} = 6.86;\ b)\ 0.38725 \pm 0.00112;\ d)\ 0.00646.$
7. a) 13/17 = 0,765, $\sqrt{31}$= 5,57; b) 3,6878 $\pm$ 0,0013; B) 8,74.
8. a) 16/7 = 2,29, $\sqrt{11}$ = 3,32; b) 0,75244 $\pm$ 0,00013; B) 5,374 .
9. a) 18/7 = 2,57, $\sqrt{22}$ = 4,69 ; b) 46,453, δ = 0,15 %; B) 6,125.
10. a) 17/9 = 1,89, $\sqrt{17}$ = 4,12; b) 0,66385 $\pm$ 0,000 42; B) 24,6.
11. a) 51/11 = 4,64, $\sqrt{35}$ = 5,92; b) 0,66385, δ = 0,34 %; B) 0,543.
12. a) 19/12 = 1,58, $\sqrt{12}$ = 3,46; b) 4,884 45 $\pm$ 0,000 52; B) 4,633.
13. a) 13/7 = 1,857, $\sqrt{7}$ = 2,65; b) 2,8867, δ = 0,43%; B) 63,749.
14. a) 49/13 = 3,77, $\sqrt{14}$ = 3,74 ; b) 5,6483 $\pm$ 0,0017; B) 0,00858.
15. a) 5/3 = 1,667, $\sqrt{38}$ = 6,16 ; b) 3,7542, δ = 0,32 %; B) 0,389.
16. a) 17/11 = 1,545, $\sqrt{18}$ = 4,243; b) 0,8647 $\pm$ 0,0013; B) 0,864.
17. a) 7/22 = 0,318, $\sqrt{13}$ = 3,61 ; b) 0,3944, δ = 0,15%; B) 21,7.

II. 17,00675 aniq sonni 0,1 gacha , $0{,}5 \cdot 10^{-3}$ gacha aniqlik bilan yaxlitlash xatoligini toping.

2. O‘lchash natijasida detalning uzunligi 36,0 sm ekani aniqlangan. Topilgan qiymatning nisbiy xatosi 0,8% dan oshmaydi. Detal uzunligining chegaraviy qiymatlarini toping.

3. Ikki kesmadan birining uzunligi 1 m $\pm$ 1 mm, ikkinchisining uzunligi 20sm $\pm$ 0,5 mm. Qaysi kesmaning uzunligi aniqroq topilgan va nima uchun?

4. 34,5867 taqribiy sonning nisbiy xatosi $\pm$ 0,1%. Ishonchsiz raqamlari aniqlangan sonni yaxlitlab, xatosini toping?

5. Natural logarifmning e=2,71828183... asosini: a) yettita ishonchli raqamgacha aniqlik bilan yozing; b) 0,5 $*10^{-3}$ gacha aniqlik bilan yaxlitlang. Natijalarning absolyut va nisbiy xatolarini toping.

6. Nisbiy xatosi 0,02% dan oshmasligi uchun $\sqrt{34}$, $\sqrt[3]{128}$, ln56 ni nechta o'nli raqam bilan olish kerak?

7. (11.) va (1.2) formulalardan foydalanib, a^x (a$> 0, a \neq 1)$ x^k (k-haqiqiy son), $\sin x$, $\cos x$, $\tan x$,$\cot x$ (x – radianlarda) funsiyalarning absolyut va nisbiy xatolarini topish uchun formulalar chiqaring. Ixtiyoriy k va x= =1.2$\pm 0.04n$ $(n = 1,2, \ldots ,10)$ uchun 2^x, x^k,$\sin x$, $\cos x$, $\tan x$, ctgx ning qiymatini toping.

8. Berilgan: a=35$\pm$0,1$, b = 2{,}34 \pm 0{,}02, c = 0{,}55($ 1 $\pm$ 3%). Quyidagilar topilsin: 1) x = 2a-2b; 2) y =a+5b; 3) t=ac; 4)u=c\b; 5) v= $\sqrt[4]{ac}$; 6) z=lgb.

9. Radiusi 2,4$\pm$0,2 sm, yasovchi 56$\pm$0,8 sm bo'lgan silindrning asosi, yon sirti va hajmini toping.

10. Ushbu x=$\frac{(a+b)c}{k-e}$ ifodaning son qiymatini toping. Bunda a=50, 34,6$< b < 34{,}7$. 19$< c < 20,\ 3{,}2 < k < 3{,}3,\ e = 12$.

11. 10-misoda a=50, b$\approx 46{,}00$, c≈21, k$\approx 4{,}842$, e≈1,87 da yechilsin.

12. Silindr asosining radiusi R≈ 4 m, balandligi $H \approx 70dm$. S yon sirti va V hajmini toping. S ni 0,01 m^3 gacha aniqlik bilan topish uchun R va H larni qanday aniqlanganda olinishi kerak? V ni 0.1 m^3 gacha aniqlik bilan topish uchun-chi?

13. $0 < x < \frac{\pi}{2}$ oraliq uchun y=lg$\sin x$, y=lg$\tan x$, y= 10^x funksiyalarning taqribiy qiymatlari buyicha argumentning taqribiy qiymatlarining xatosini aniqlash formulalarini chiqaring.

14. Ushbu lg$\sin x$ va lg$\tan x$ funksiyalar qiymatlari to'rt xonali jadvalidan foydalanib, x≈ 60℃ uchun topilgan. Bu qiymatning absolyut xatoligi baxolansin.

15. 10^x qiymatlarining besh xonali jadvalidan x≈ 5 aniqlangan. Bu topilgan qiymatning absolyut va nisbiy xatosini toping.

16. Aylana uzunligi, doira yuzi, konus va silindrning yon sirti uchun xatoni xisoblash formulalarini chiqaring.

17. Ishonchli raqamlarni sanash qoidalaridan foydalanib, taqribiy sonlar ustida quyidagi amallarni bajaring:

1) 418,66781+12.4266+6,102+3,902

2) $\frac{1}{7}+\frac{1}{6}-\frac{2}{9}+\frac{4}{11}$ (surat va maxrajdan aniq sonlar turibdi)

3) 17,906 - 6,5408

4) 37,523 + 0,60 – 6,5408

5) $\sqrt{12}-\sqrt{8}+\sqrt{14}$

6) $0{,}2\sqrt{200}-5\sqrt{7.08}+7\sqrt{10}+0{,}4\sqrt{60}$

III. X argumentli Δx absolyut yoki δx nisbiy xato qiymatlari ma'lum, $y=f(x)$ funksiya ega bo'lishi mumkin bo'lgan $\Delta(y)\ va$ $\delta(y)$ xato chegaralarini hisoblang.

variant	Δx	$\delta\ x$	$f(x)$	variant	Δx	δx	$f(x)$
1		1,2%	$(x+1)^3$-2	14	0.002		$\sqrt{tgx}$
2		1,4%	$\frac{x^2+1}{x-1}$	15	0,003		$\sqrt{2^x}$
3	0,001		$\sqrt{x^2-4}$	16		1%	$\cos^2 2x$
4	0,002		-$\sqrt{10-x^2}$	17		1%	arctg$\frac{1}{x}$
5		1%	$\log_{\frac{1}{3}}(x+1)$	18		2%	$\cos^2 3x$
6	0,002		$\frac{1}{1+x+x^3}$	19	0,002		4^{3x}
7		2%	$\sin(x+\frac{\pi}{3})$	20	0,002		$\sin^3 2x$
8	0,001		$-2+\cos^2 x$	21		1%	4^{tg2x}
9		1,5%	2tg$\sqrt{x}$	22		2%	$\sqrt{(x+1)(6-x)}$
10	0,001		lg$cosx$	23		1%	x^2-4x-45
11	0,001		$arctgx2$	24	0,002		$Log2x$
12		1%	2^{tgx}	25		2%	$log_3(x+1)$
13	0,002		$\sqrt{cosx}$	26			

1.1-turdagi topshiriqlar [3]

Topshiriqlarni bajarish uchun na'muna:

1-misol. Qaysi tenglik aniqroq ekanini aniqlang.

9/11=0.818; $\sqrt{18}$=4.24.

Yechish: Berilgan ifodaning o'nli raqamlari sonini ko'proq qilib olamiz: $\alpha_1 = 9/11 = 0{,}81818\ldots$, $\alpha_2 = \sqrt{18} = 4.2426$. Keyin chegaraviy absolyut xatoni hisoblab, ularni ortig'i bilan yaxlitlaymiz:

$\alpha_{\alpha_1} = |0.81818 - 0.818\,| \le 0.00019$, $\alpha_{\alpha_2} = |4.2426 - 4.24| \le$ 0.0027.

Chegaraviy nisbiq xatolik

$$\delta_{\alpha_1} = \frac{\alpha_{\alpha_1}}{\alpha_1} = \frac{0.00019}{0.818} = 0.00024 = 0.024\%;$$

$$\delta_{\alpha_2} = \frac{\alpha_{\alpha_2}}{\alpha_2} = \frac{0.0027}{4.24} = 0.00064 = 0.064\%.$$

lardan iborat. $\delta_{\alpha_1} < \delta_{\alpha_2}$ bo'lgani uchun, 9/l l=0.818 tenglik aniqroq bo'ladi.

2-misol. Ishonchli raqamlarni qoldirib, shubhali raqamlarni yaxlitlang: a) tor ma'noda; b) keng ma'noda. Natijaning absolyut xatoligini aniqlang.

a) 72.353 (± 0.026); b) 2.3544; δ=0.2%;

Yechish:

a) $72{,}353(\pm\, 0{,}026\,) = \;a$ bo'lsin. Shartga ko'ra, xatolik $\alpha_a = 0{,}026 < 0{,}05$, bu esa 72,353 sonda 7, 2, 3 raqamlar tor ma'noda ishonchli ekanini ko'rsatadi. Yaxlitlash qoidasiga asosan o'ndan birlar xonasini saqlab qolib berilgan sonning taqribiy qiymatini topamiz:

$$\alpha_1 = 72.4;\ \alpha_{\alpha_1} = \alpha_\alpha + \Delta_{okr} = 0{,}026 + 0.047 = 0.073.$$

Topilgan xatolik 0,05 dan katta. Demak , taqribiy sondagi raqamlar sonini ikkitagacha kamaytirish kerak:

$\alpha_2 = 72;\quad \alpha_{\alpha_2} = \alpha_\alpha + \Delta_{okr} = 0{,}026 + 0{,}353 = 0{,}379.$

$\alpha_{\alpha_2} < 0{,}5$ bo'lgani uchun, qolgan raqamlarning ikkalasi ham tor ma'noda ishonchli bo'ladi.

b) a =2,3544; $\delta_\alpha = 0.2\%$ bo‘lsin, u holda $\alpha_\alpha = \alpha \cdot \delta_\alpha$= 0,00471 bo‘ladi. Berilgan sonda uchta raqam keng ma’noda ishonchli bo‘ladi, shuning uchun shu uchta raqamni saqlab uni yaxlitlaymiz:

$$\alpha_1 = 2.35;\ \alpha_{\alpha_1} = 0.0044 + 0.00471 = 0.00911 < 0.01.$$

Demak, 2,35 yaxlitlangan sondagi uchala raqam ham keng ma’noda ishonchli bo‘ladi.

3-misol. Agar sonlar faqat: a) tor ma’noda; b) keng ma’noda ishonchli

raqamga ega bo‘lsa, u holda sonning chegaraviy absolyut va chegaraviy nisbiy xatoliklarini toping.

a) 0.4357; b) 12,348.

Yechish: a) $a = 0{,}4357$ sondagi to‘rtala raqam ham tor ma’noda ishonchli bo‘lgani uchun , absolyut xatolik α =0,00005, nisbiy xatolik esa

$$\delta_\alpha = \frac{1}{2 \cdot 4 \cdot 10^3} = 0.000125 = 0.0125\%\ \ bo‘ladi.$$

b) $a = 12{,}384$ sonning beshta raqami ham keng ma’noda ishonchli bo‘lgani uchun α_α = 0,001; $\delta_\alpha = 1/(1 \cdot 10^4)$ = 0,0001=0.01 %. Topshiriq to‘liq bajarildi.

Mustaqil yechish uchun:

Quyida berilgan misollar uchun 1), 2), 3) talablarni bajaring:

1) Qaysi tenglik aniqroq ekanini aniqlang.

2) Ishonchli raqamlarni qoldirib, shubhali raqamlarni yaxlitlang: a) tor ma’noda; b) keng ma’noda. Natijaning absolyut xatoligini aniqlang.

3) Agar sonlar faqat: a) tor ma’noda; b) keng ma’noda ishonchli raqamga ega bo‘lsa, u holda sonning chegaraviy absoyut va chegaraviy nisbiy xatoliklarini toping.

№ 1.

1) $\sqrt{44}$=6.63; 19/41=0.463.

2) a) 22.553 ($\pm$0.016);

b) 2,8546; $\delta = 0{,}3\%$,

3) a) 0,2387; b) 42,884,

№ 2

1) 7/15=0.467; $\sqrt{30}$=5.48.

2) a) 17,2834; δ=0,3%.

b) 6,4257 ($\pm$0,0024),

3) a) 3,751; b) 0,537.

№ 3.

1) $\sqrt{10.5}$ =3.24; 4/17=0.235.
2) a) 34,834; $\delta = 0,1\%$;
b) 0,5748 ($\pm$0.0034).
3) a) 11,445; b) 2,043.

№ 4.

1) 15/7=2.14; $\sqrt{10}$=3.16.
2) a) 2,3485 ($\pm$0,0042);
b) 0,34844; δ=0.745.
3) a) 20,43; b)0,745.

№ 5.

1) 6/7=0.857; $\sqrt{4.8}$=2.19.
2) a) 5.435 ($\pm$0.0028);
b) 10,8441; $\delta = 0.5\%$.
3) a) 8,345; b) 0.288.

№ 6.

1) 12/11=1.091; $\sqrt{6.8}$=2.61.
2) a) 8,24163; δ=0.2%;
b) 0,12356 ($\pm$0,00036),
3) a) 12,45; b) 3.4453.

№ 7.

1) 2.21=0,095; $\sqrt{22}$=4.69.
2) a) 2,4543; ($\pm$0.0032);
b) 24.5643; δ=0.1%.
3) a) 0.374; b) 0,678

№ 8.

1) 23/15=1.53; $\sqrt{9.8}$=3.13.
2) a) 23,574; δ=0,2%.
b) 8,3445 ($\pm$0,0022),
3) a) 20,43; b)0,576.

№ 9.

1) 6/11=0.545; $\sqrt{83}$=9.11.
2) a) 21,68563; δ=0.3%.
b) 3,7834 ($\pm$0,0041),
3) a) 41,72; b)0.678.

№ 10.

1) 17/19=0.895; $\sqrt{52}$=7.21.
2) a) 13,537 ($\pm 0{,}0026$).
b) 7,521; $\delta = 0.12\%$.
3) a) 5,634; b) 0,0748.

№ 11.

1) 21/29=0.723; $\sqrt{44}$=6.63.
2) a) 0,3567; δ=0.042%.
b) 13,6253 ($\pm$0,0021).
3) a) 18,357; b) 2,16.

№ 12.

1) 50/19=2.63; $\sqrt{27}$5.19.
2) a) 1,784 ($\pm 0{,}0063$);
b) 0,85637; $\delta = 0.21\%$.
3) a) 0,5746; b) 236,58.

№ 13.

1) 13/17=0.764; $\sqrt{31}$=5.56.
2) a) 3,6878 ($\pm$0,0013);
b) 15,873; δ=0.42%.
3) a) 14,862; b) 8,73.

№ 14.

1) 7/22 =0.318; $\sqrt{13}$=3.60.
2) a) 27,1548 ($\pm$0.0016);
b) 0,3945; $\delta = 0{,}16\%$.
3) a) 0,3648; b)21,7.

№ 15.

1) 17/11=1.545; $\sqrt{18} = 4.24$.

2) a) 0,8647 ($\pm$0,0013);

b)24.3618; $\delta = 0.22\%$.

3) a) 2.4516; b)0,863,

№16.

1) 5/3=1.667; $\sqrt{38} = 6.16$.

2) a) 3.7542; $\delta = 0.32\%$;

b) 0,98351 ($\pm$0,00042),

3) a) 62,74; b) 0,389,

№17.

1) 49/13=3.77; $\sqrt{14} = 3.74$.

2) a) 83.736; $\delta = 0.085\%$;

b) 5.6483 ($\pm$0.0017).

3)a)5.6432; b)0,00858,

№18.

1)13/7=1.857; $\sqrt{7} = 2.64$

2) a) 2.8867; $\delta = 0.43\%$;

b) 32,7486 b) 63,745,

3) a) 0,0384; b) 63,745,

№19.

1) 19/12=1.58;$\sqrt{12} = 3.46$

2) a) 4.88445 ($\pm$0.00052);

b) 0,096835; $\delta = 0.32\%$

3) a)12.688; b) 4,636

№20.

1) 51/11=4.64; $\sqrt{354} = 5.91$.

2) a) 38.4258 ($\pm$0.0014);

b) 0,66385; $\delta = 0.34\%$.

3) a) 6.743; b) 0,543,.

№21.

1)18/7=2.57; $\sqrt{22} = 4.69$.

2) a) 0.39642 ($\pm$0.00022);

b) 46,453; $\delta = 0.15\%$.

3) a)15.644; b) 6,125,

№22.

1)19/9=2.11 $\sqrt{17} = 4.12$.

2) a) 5.8425; $\delta = 0.23\%$.

b) 0,66385 ($\pm$0,00042),

3) a) 0,3825; b) 24.6.

№23.

1) 16/7=2.28; $\sqrt{11} = 3.32$.

2) a) 24.3872; $\delta = 0.34\%$;

b) 0,75244 ($\pm$0,00013).

3) a) 16.383; b) 5,734,

№24.

1)20/13=1.54; $\sqrt{63} = 7.94$.

2) a) 2.3684 ($\pm$0.00017);

b) 45,7832;$\delta = 0{,}18\%$,

3) a) .0,573; b)3,6761.

№25.

1) 12/7=1.71; $\sqrt{47} = 6.86$.

2) a) 72.354; $\delta = 0.24\%$;

b) 0,38725 ($\pm$0,00112),

3) a) 18,275; b)0,00644.

№26.

1)6/7=0.857; $\sqrt{41}6.40$.

2) a) 0.36127 ($\pm$0.00034);

b) 46,7843; $\delta = 0{,}32$.

3) a) 3,425; b) 7,38.

№27.

1)23/9=2.56; $\sqrt{87} = 9.33$.

2) a) 23.7564; $\delta = 0.44\%$;

b) 4.57633 (± 0.00042).

3) a) 26.3; b)6,8343,

№28.

1) 27/31=0.872; $\sqrt{42} = 6.48$.

2) a) 15.8372 (± 0.0026);

b) 0,08874; $\delta = 0{,}56\%$.

3) a)3,643; b)72,385.

№29.

1) 7/3=2.33; $\sqrt{58} = 7.61$.

2) a) 3.87683; $\delta = 0.33\%$;

b)13,5726 ($\pm 0{,}0072$),

3) a) 26,3; b) 4,8556,

№30.

1)14/17=0.823; $\sqrt{53} = 7.28$.

2) a) 0.66835 (± 0.00115);

b) 23,3748; $\delta = 0{,}27\%$.

3) a) 43,813; b) 0,645.

1.2-turdagi topshiriqlar

Topshiriqlarni bajarish uchun na'muna:

1-misol. Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang.

$$X = \frac{m^2 n^3}{\sqrt{k}}, bunda\ \ m = 28{,}3(\pm 0{,}02),$$
$$n = 7{,}45(\pm 0{,}01), k = 0{,}678(\pm 0.003).$$

Yechish: Quyidagilarni hisoblaymiz $m^2 = 800.9$; $n^2 = 413.5$; $\sqrt{k} = 0.8234$;

$$\text{X} = \frac{800.9\ 413.5}{0.8234} = 402200 = 4.02\ \cdot 10^5.$$

Keyin,

$\delta_m = \frac{0.02}{28.3} = 0.00071; \delta_m = \frac{0.01}{7.45}\ = 0.00135;\ \delta_k = \frac{0.003}{0.678} = 0.00443,$

Bundan

$$\delta_x = 2\delta_m + 3\delta_n + 0.5\delta_k = 0.00142 + 0.00405 + 0.00222$$
$$= 0.00769 = 0.77\%;$$

$\alpha_x = 4.02 \cdot 0.0077 = 3.110^3$.

Javob: X=4.02· $10^5(\pm 3.1 \cdot 10^3)$; $\delta_x = 0.77\%$.

$2-$ misol. Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang.

$$N = \frac{(n-1)(m+n)}{(m-n)^2}\ , bunda\ n = 3{,}0567(\pm 0{,}0001), m$$
$$= 5{,}72(\pm 0{,}02).$$

Yechish: Quyidagiga egamiz

$$n-1=2.0567(\pm 0.0001);\ m+n=3.057(\pm 0.0004)+5.72(\pm 0.02)=$$
$$=\ 8.777(\pm 0.0204);\ m-n=5.72(\pm 0.02)-3.057(\pm 0.0004)=$$
$$=2.663(\pm 0.0204);$$

$$\mathrm{N}=\frac{2.0567*8.777}{2.663^2}=\frac{2.0567*8.777}{7.092}=2{,}545;\approx 2.55;$$
$$\delta_N=\frac{0.0001}{2.0567}+\frac{0.0204}{8.777}+2\frac{0.0204}{2.663}=0.000049+0.00233+2\cdot 0.00766=$$
$$=0.00238+0.01532=0.0177=1.77\%;\ \alpha_N=2.55\cdot 0.0177=0.046.$$

Javob: N$\approx 2.55(\pm 0.046);\ \delta_N=1.77\%$.

$3-$misol. Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$V=\pi h^2\left(R-\frac{h}{3}\right), bunda\ \ \mathrm{h}=11.8;\ \mathrm{R}=23.67.$$

Yechish: Hisoblaymiz

V=3.142$\cdot 11.8^2(23.67-3.933)=3.142\cdot 11.8^2\cdot 19.737=$

=3.142$\cdot 139.2\cdot 19.737=437.37\cdot 19.737=8630\approx 8.63\cdot 10^3$.

Javob: V$\approx 8.63\cdot 10^3$. Topshiriq to‘liq bajarildi.

Mustaqil yechish uchun:

№ 1.

1) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $\mathrm{X}=\frac{ab}{\sqrt[3]{c}}$

	A	b	v
a	3.85 (0.01)	4.16 (0.005)	7,27 (0,01)
b	2.0435 (0.0004)	12.162 (0.002)	5,205 (0,002)
c	962.6(0.1)	55.18 (0.01)	87,32 (0,03)

2) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X=\dfrac{(a-b)c}{\sqrt{m+n}}$

	a	b	V
a b c m n	4.3 (0.05) 17.21 (0.02) 8.2 (0.05) 12.417 (0.003) 8.37 (0.005)	5.2 (0.004) 15.32 (0.01) 7.5 (0.05) 21.823 (0.002) 7.56 (0.003)	2.13 (0.01) 22.16 (0.003) 6.3 (0.04) 16.825 (0.004) 8.13 (0.002)

3) Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$S = \frac{b^2}{18} : \frac{a^2 + 4ab + b^2}{(a+b)^2}$$

	a	b	V
a b c	1,141 3,156 1,14	2,234 4,518 4,48	5,813 1,315 2,56

№ 2.

1) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \frac{\sqrt{a} \cdot b}{c}$

	a	b	V
a b c	228,6 (±0,06) 86,4 (±0,02) 68,7 (±0,05)	315,6 (±0,05) 72,5 (±0,03) 53,8 (±0,04)	186,7 (±0,04) 66,6 (±0,02) 72,3 (=±0,03)

2) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang.

$$X = \frac{m^3(a+b)}{c-d}$$

	a	b	v
a b m c d	13,5 (±0,02) 3,7 (±0,02) 4,22 (±0,004) 34,5 (±0,02) 23,725 (±0,005)	18,5 (±0,03) 5,6 (±0,02) 3,42 (±0,003) 26,3 (±0,01) 14,782 (±0,006)	11,8 (±0,02) 7,4 (±0,03) 5,82 (±0,005) 26,7 (±0,03) 11,234 (±0,004)

3) Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$X = \frac{(a+b)h^3}{4} + \frac{(a+b)h}{12}$$

	a	b	v
a b h	8,53 6,275 12,48	6,44 5,323 15,44	9,05 3,244 20,18

№ 3.

1) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \frac{\sqrt{ab}}{c}$

	a	b	v
a b c	3,845(±0,004) 16,2(±0,05) 10,8 (±0,1)	4,632 (±0,003) 23,3 (±0,04) 11,3 (±0,06)	7,312 (±0,004) 18,4 (±0,03) 20,2 (±0,08)

2) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \frac{(a+b)m}{(c-d)}$

	a	b	v
a b m c d	2,754 (±0,001) 11,7 (±0,04) 0,56 (±0,005) 10,536 (±0,002) 6,32 (±0,008)	3,236 (±0,002) 15,8 (±0,03) 0,64 (±0,004) 12,415 (±0,003) 7,18 (±0,006)	4,523 (±0,003) 10,8 (±0,02) 0,85 (±0,003) 9,318 (±0,002) 4,17 (±0,004)

3) Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$N = \frac{(a+b)^2}{2h} + \frac{(a^2+b^2)h}{5}$$

	a	b	V
a b h	0,562 0,2518 0,68	0,834 0,3523 0,74	0,445 0,4834 0,87

№ 4.

1) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \frac{a^2 b}{c}$

	a	b	v
a	3,456 (±0,002)	1,245 (±0,001)	0,327 (±0,005)
b	0,642 (±0,0005)	0,121 (±0,0002)	3,147 (±0,0001)
c	7,12 (±0,004)	2,34 (±0,003)	1,78 (±0,001)

3) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \frac{(a+b)m}{\sqrt{c-d}}$

	a	b	v
a	23,16 (±0,02)	17,41 (±0,01)	32,37 (±0,03)
b	8,23 (±0,005)	1,27 (±0,002)	2,35 (0,001)
c	145,5 (±0,08)	342,3 (±0,04)	128,7 (±0,02)
d	28,6 (±0,1)	11,7 (±0,1)	27,3 (±0,04)
m	0,28 (±0,006)	0,71 (±0,003)	0,93 (±0,001)

3) Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$X = \frac{h}{3} \cdot S\left(1 + \frac{a}{A} + \frac{a^2}{A^2}\right)$$

	a	b	v
a	8,51	5,71	7,28
A	23,42	32,17	11,71
S	45,8	51,7	21,8
h	3,81	2,42	5,31

№ 5. 1) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \frac{ab^3}{c}$

	a	b	v
a	0,643 (±0,005)	0,142 (±0,003)	0,258 (±0,004)
b	2,17 (±0,002)	1,71 (±0,002)	3,45 (±0,001)
c	75,843 (±0,001)	3,727 (±0,001)	17,221 (±0,003)

2) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \frac{(a-b)c}{\sqrt{m+n}}$

	a	b	v
a	27,16 (±0,006)	15,71 (±0,005)	12,31 (±0,004)
b	5,03 (±0,01)	3,28 (±0,02)	1,73 (0,03)
c	3,6 (±0,02)	7,2 (±0,01)	3,7 (±0,02)
m	12,375 (±0,004)	13,752 (±0,001)	17,428 (±0,003)
n	86,2 (±0,05)	33,7 (±0,03)	41,7 (±0,01)

3) Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$S = \frac{h^2}{18} \cdot \frac{a^2 + 4ab + b^2}{(a+b)^2}$$

	a	b	v
h a b	21,1 22,08 31,11	17,8 32,47 11,42	32,5 27,51 21,78

№ 6.

1) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \frac{ab}{c^2}$

	a	b	v
a b c	0,3575 (±0,0002) 2,63 (±0,01) 0,854 (±0,005)	0,1756(±0,0001) 3,71 (±0,03) 0,285 (±0,0002)	0,2731 (±0,0003) 5,12 (±0,02) 0,374 (±0,0001)

2) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \frac{a+b}{\sqrt{(c-d)m}}$

	a	b	v
a b c d m	16,342 (±0,001) 2,5 (±0,03) 38,17 (±0,002) 9,14 (±0,005) 3,6 (±0,04)	12,751 (±0,001) 3,7 (±0,02) 23,76 (±0,003) 8,12 (±0,004) 1,7 (±0,01)	31,456 (±0,002) 7,3 (0,01) 33,28 (±0,003) 6,71 (±0,001) 5,8 (±0,02)

3) Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$V = \frac{1}{6}\pi h(3a^2 + h^2)$$

	a	b	v
a h	2,456 1,76	7,751 3,35	5,441 6,17

№ 7.

1) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $V = \frac{\pi^2}{4} D d^2$

	a	b	v
π D d	3,14 54 (±0,5) 8,235 (±0,001)	3,14 72 (±0,3) 3,274 (±0,002)	3,14 31 (±0,01) 7,345 (±0,001)

2) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang.

$$S = \frac{1}{64} \pi \sqrt{D^2 - d^2}$$

	a	b	v
D d π	36,5 (±0,1) 26,35 (±0,005) 3,14	41,4(±0,2) 31,75(±0,003) 3,14	52,6 (±0,01) 48,39 (±0,001) 3,14

3) Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$a = c^2 \left(1 + \frac{2\beta}{c} + \frac{\gamma^2}{c^2}\right)$$

	a	b	v
c β γ	2,435 0,15 1,27	7,834 0,21 3,71	4,539 0,34 5,93

№ 8.

1) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $= \frac{m^2 n}{c^3}$

	a	b	v
m n c	1,6531 (±0,0003) 3,78 (±0,001) 0,158 (±0,0005)	2,348(±0,002) 4,37 (±0,004) 0,235 (±0,0003)	3,804 (±0,003) 4,05 (±0,003) 0,318 (±0,0002)

2) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \frac{m\sqrt{a - b}}{c + d}$

	a	b	v
a b	9,542 (±0,001) 3,128 (±0,002)	8,357(±0,003) 2,48 (0,004)	4,218 (±0,001) 1,57 (±0,006)
m c d	2.8(±0.03) 0.172(±0.001) 5.4(±0.02)	3.17(±0.01) 1.315(±0.0004) 2.4(±0.02)	2.32(±0.02) 2.418(±0.004) 1.8(±0.01)

3) Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$V = \frac{1}{15}\pi h(2D^2 + Dd + 0.75d^2)$$

	a	b	v
h *D* *d*	84.2 28.3 42.08	76 17.2 9.344	45 48.3 32.14

№9.

1) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $X = \sqrt{\frac{cd}{b}}$

	a	b	v
c *d* *b*	0.7568(±0.0002) 21.7(±0.02) 2.65(±0.01)	0.8345(±0.0004) 13.8(±0.03) 1.84(±0.006)	0.6384(±0.0002) 32.7(±0.04) 4.88(±0.03)

2) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $y = \frac{\sqrt[3]{a-b}}{m(n-a)}$

	a	b	v
a *b* *m* *n*	10.82(±0.03) 2.786(±0.0006) 0.28(±0.006) 14.7(±0.06)	9.37(±0.004) 3.108(±0.0003) 0.46(±0.002) 15.2(±0.04)	11.45(±0.01) 4.431(±0.002) 0.75(±0.003) 16.7(±0.05)

3) Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$S = \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}\ , bunda\ p = (a+b+c)/2$$

	a	b	v
a	46.3	10.5	2.48
b	29.72	34.18	5.344
c	37.654	27.327	6.0218

№10.

1) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang. $f = \frac{Qe^3}{48E}$

	a	b	v
Q	54.8($\pm$0.02)	38.5($\pm$0.01)	17.3($\pm$0.03)
e	2.45($\pm$0.01)	3.35($\pm$0.02)	5.73($\pm$0.01)
E	0.863($\pm$0.004)	0.734($\pm$0.001)	0.956($\pm$0.004)

2) Hisoblang va natijaning xatoligini aniqlang.

$$Q = \frac{(2n-1)^2(x+y)}{x-y}$$

	a	b	v
n	2.0435($\pm$0.0001)	1.1753($\pm$0.0002)	4.5681($\pm$0.0001)
x	4.2($\pm$0.05)	5.8($\pm$0.01)	6.3($\pm$0.02)
y	0.82($\pm$0.01)	0.65($\pm$0.02)	0.42($\pm$0.03)

2) Raqamlarni hisoblash usulidan foydalanib hisoblang.

$$\gamma = \frac{\alpha b - \beta}{b^2} - \frac{\beta(ab - \beta a)}{b^2(b+\beta)}$$

	a	b	v
α	5.27	7.31	3.28
β	0.0562	0.0761	0.0545
a	158.35	234.36	341.17
b	61.21	81.26	52.34

II BOB. ALGEBRAIK VA TRANSSENDENT TENGLAMALARNI TAQRIBIY YECHISH

2.1-§. ALGEBRAIK VA TRANSSENDENT TENGLAMALAR

Umumiy holda ixtiyoriy tenglamani

$$f(x) = 0 \qquad (2.1)$$

ko‘rinishda tasvirlash mumkin.

Chiziqli bo‘lmagan tenglamalar ikki sinfga ajratiladi – algebraik va transsendent.

Faqat algebraik funksiyalar (butun, ratsional, irratsional) dan iborat tenglamalar *algebraik tenglamalar* deyiladi. Algebraik tenglamalarni haqiqiy koeffitsientli n - darajali ko‘pxad ko‘rinishida ifodalash mumkin:

$$f(x) = a_0x^n + a_1x^{n-1} + \cdots + a_n = 0. \qquad (2.2)$$

Masalan, $2x^3 + 3x^2 + x = 0.$

Boshqa funksiyalar (trigonometrik, ko‘rsatgichli, logarifmik va h.k.) dan iborat tenglamalar *transsendent tenglamalar* deyiladi.

Masalan,

$$2x + \cos x - sinx = 0. \qquad (2.3)$$

Ta’rif: (2.1) tenglamani yechish deb, undagi x ning (2.2) va (2.3) larni ayniyatga aylantiradigan, ya’ni chap qismini nolga aylantiradigan qiymatlarini topishga aytiladi. Boshqacha aytganda $x = \xi$ bo‘lib,

$$f(\xi) = 0$$

bo‘lsa, ξ -tenglama ildizi buladi.

Chiziqli bo‘lmagan tenglamalarni yechish usuli ikkiga bo‘linadi: aniq (to‘g‘ri) usul va iteratsion usul. Aniq usul ildizni formula ko‘rinishda yozishga imkon beradi. Lekin hamma vaqt ham tenglamani aniq usul bilan yechib bo‘lmaydi. Shunday hollarda tenglama taqribiy yechiladi, ya’ni iteratsion usul qo‘llaniladi. (2.1) tenglamani taqribiy yechishda odatda aniqlanish sohasi kichik oraliqlarga ajratiladi va bu kichik oralaqlarda tenglamaning yechimi qidiriladi. (2.1) tenglamaning ildizlarini taqribiy hisoblash ikki qismdan iborat:

a) Ildizlarni ajratish.

b) Dastlabki yaqinlashish ma’lum bo‘lsa, ildizlarni berilgan aniqlik bilan hisoblash.

2.2-§. TENGLAMALARNING HAQIQIY ILDIZLARINI AJRATISH

Ildizlarni ajratish grafik yoki analitik usullarda bajarilishi mumkin.

- ***Ildizlarni grafik usulda ajratish.*** Maqsadimiz (2.1) tenglamaning bittadan ildizlari joylashgan kichik oraliqlarni ajratish(topish).

$y = f(x)$ funksiyani qaraylik. Bilamizki $f(x)$ funksiya grafigining Ox o‘qi bilan kesishish nuqtalari $f(x) = 0$ tenglamaning taqribiy ildizlari bo‘ladi. $f(x) = 0$ tenglamaning aniq ildizlari uning grafik usulda topilgan x_i^* taqribiy ildizlarining biror bir atrofida yotadi. Shunday qilib, berilgan tenglamaning ildizlari ajratildi.



a) chizmada uchta ildiz ajralib turibdi, *b)* chizmada esa bitta ildiz.

Ildizlarni grafik usulda ajratish uchun (2.1) tenglamani

$$f_1(x) = f_2(x) \qquad (2.4)$$

ko‘rinishda yozib olamiz va $y = f_1(x)$; $y = f_2(x)$ funksiyalarning garafiklarini chizamiz. Bu chizmalar kesishish nuqtalarining abssissalari

$$f(x) = f_1(x) - f_2(x) = 0$$

tenglama aniq ildizining taqribiy qiymati bo‘ladi. (2.1) tenglamani bir necha usul bilan (2.4) ko‘rinishda yozish mumkin. Bu usullarning ichidan shundayini tanlaymizki, unda $y = f_1(x)$; $y = f_2(x)$ funksiyalarning grafiklarini chizish yengil bo‘lsin.

Chizmadan (2.1) tenglamaning bitta ildizi yotadigan oraliqlarni ajratib olish kerak.

2.1-misol. $x^3 - x - 1 = 0$ tenglamaning musbat ildizlarini grafik usulda ajrating.

Yechish: Berilgan tenglamani $x^3 = x + 1$ ko‘rinishda yozamiz va $y = f_1(x) = x^3$; $y = f_2(x) = x + 1$ funksiyalarning grafiklarini chizamiz. Chizmadan ko‘rinib turibdiki berilgan tenglama $[1.0; 1.5]$ oraliqda yagona musbat ildizga ega bo‘ladi (nima uchun 1.5 nuqtani oldik, chunki $f_1(1.5) = 3.375 \neq f_2(1.5) = 2.5$). Bunda dastlabki yaqinlashish sifatida $x_0 = 1.25$ ni olsak bo‘ladi.



(2.1) tenglamaning manfiy ildizlarini topish uchun (2.1) tenglamada $Z = -x$ almashtirish bajarib, yangi $f(Z) = 0$ tenglamani hosil qilamiz. Dastlabki (2.1) tenglamaning har bir manfiy ildiziga hosil qilingan $f(Z) = 0$ tenglamaning musbat ildizi to‘g‘ri keladi. Oxirida $x^* = -Z^*$ almashtirish bajarish kerak.

- ***Ildizlarni analitik usullarda ajratish***

Quyidagi teoremalarni eslaylik (Matematik analiz kursidan ma’lum).

2.1-teorema (Bolsano Koshi). Agar uzluksiz $f(x)$ funksiya biror $[a, b]$ oraliqning chetki nuqtalarida har xil ishorali qiymatlarni qabul qilsa ($ya'ni\ f(a) \cdot f(b) < 0$), u vaqtda bu oraliqda (2.1) tenglamaning hech bo'lmaganda bitta ildizi mavjuddir.

2.2-teorema. $f(x)$ funksiya $[a, b]$ oraliqda analitik (*ya'ni shu oraliqning har qaysi nuqtasi atrofida yaqinlashuvchi darajali qatorga yoyilsa*) funksiya bo'lsin. Agar $[a, b]$ oraliqning chetki nuqtalarida har xil ishorali qiymatlarni qabul qilsa, u vaqtda (2.1) tenglamaning $a\ va\ b$ nuqtalar orasida yotadigan ildizlarining soni toqdir.

2.3-teorema. Faraz qilaylik $f \in C^1[a; b]$ bo'lsin, agar $f'(x)$ hosila $[a, b]$ kesmada o'z ishorasini saqlasa, u holda (2.1) tenglama $[a, b]$ oraliqda yagona ildizga ega bo'lish uchun $f(a) \cdot f(x) < 0$ shart bajarilishi zarur va yetarlidir.

Agar $f(x)$ funksiya $[a, b]$ oraliqning chetki nuqtalarida bir xil ishorali qiymatlarni qabul qilsa, u vaqtda (2.1) tenglamaning ildizlari yo $[a, b]$ oraliqda yotmaydi yoki ularning soni juftdir.

Algebraik

$$f(x) \equiv a_0 x^n + a_1 x^{n-1} + \cdots + a_{n-1} x + a_n = 0 \qquad (2.5)$$

tenglamaning ildizlarini ajratish talab etilsin $\left(a_j - haqiqiy, a_0 \neq 0,\ a_n \neq 0\right)$.

2.4-teorema. Agar

$$A = \max_{1 \le k \le n} \left|\frac{a_k}{a_0}\right|, \qquad A_1 = \max_{1 \le k \le n-1} \left|\frac{a_k}{a_n}\right|$$

bo'lsa, u holda (2.5) tenglamaning barcha ildizlari

$$r = \frac{1}{1 + A_1} < |x| < 1 + A = R$$

xalqa ichida yotadi.

r va R sonlar (2.5) tenglama musbat ildizlarining quyi va yuqori chegaralari bo'ladi. Manfiy ildizlarining quyi va yuqori chegaralari esa mos ravishda – R va – r sonlar bo'ladi.

2.2-misol: Quyidagi tenglama haqiqiy ildizlarining chegarasi topilsin.

$$f(x) = 2x^4 - 2{,}5x^2 + 8x - 8 = 0 \qquad (2.6)$$

Yechish: 3-teoremadan foydalanamiz, bu yerda $a_0 = 2, A = 4, A_1 = 1.$

Bundan R= $1+4=5$, $r=\frac{1}{1+1}=0{,}5$. Demak, berilgan tenglamaning ildizlari $(0{,}5, 5)$ va $(-5, -0{,}5)$ oraliqda yotar ekan.

2.5-teorema . (Lagranj teoremasi)**.** Agar (2.5) tenglamaning manfiy koeffitsientlaridan eng birinchisi (chapdan o‘ngga) a_k bo‘lib, B manfiy koeffitsientlarning absolyut qiymatlari bo‘yicha eng kattasi bo‘lsa, u holda musbat ildizlarning yuqori chegarasi

$$R=1+\sqrt[k]{\frac{B}{a_0}} \qquad (2.7)$$

son bilan ifodalanadi.

2.3-misol: Yuqoridagi 2.2-misolni Lagranj teoremasidan foydalanib yeching.

Yechish: Teorema 4 dan foydalanamiz. $f(x)=2x^4-2{,}5x^2+8x-8=0$,bu yerda $a_0=2,\ k=2, B=8.$ Bularni (2.7) formulaga qo‘yib, musbat ildizlarning yuqori chegarasi uchun

$$R=1+\sqrt{\frac{8}{2}}=1+2=3$$

ni hosil qilamiz. Keyin (2.6) tenglamada x ni $-x$ bilan almashtirsak,

$$f(x)=2x^4-2{,}5x^2-8x-8=0$$

tenglama hosil bo‘ladi. Bu tenglama musbat ildizlarining yuqori chegarasi uchun ham $R=3$ tengsizlik kelib chiqadi. YA’ni Lagranj teoremasiga ko‘ra (2.1.2) tenglamaning ildizlari $(-3, 3)$ oraliqda joylashgan ekan.

2.6-teorema (Nyuton teoremasi)**.** Agar $x=c>0$ uchun $f(x)$ ko‘phad va uning barcha $f'(x), f'(x), \dots, f^{(n)}(x)$ hosilalari nomanfiy bo‘lsa, u holda $R=c$ ni (2.5) tenglamaning musbat ildizlar uchun yuqori chegara deb hisoblash mumkin.

2.4-misol: Yuqoridagi 2.2-misolni Nyuton teoremasidan foydalanib yeching.

Yechish: Teorema 5 dan foydalanamiz. Bu yerda

$$f(x)=2x^4-2{,}5x^2+8x-8,$$
$$f'(x)=8x^3-5x+8,$$

$$f''(x) = 24x^2 - 5,$$
$$f'''^{(x)} = 48x,$$
$$f^{IV}(x) = 48.$$

Ko‘rinib turibdiki, $x > 1{,}5$ uchun $f(x) > 0, f'(x) > 0,\ f''(x) > 0,\ \ f'''(x) > 0,\ f^{IV}(x) > 0.$

Demak, $c = 1{,}5$ musbat ildizlarining yuqori chegarasi ekan. Endi (2.6) tenglamadagi x ni $-x$ bilan almashtirib $f_1(-x) = 2x^4 - 2{,}5x^2 - -8x - 8 = 0$ tenglamani hosil qilamiz. Yuqoridagiga o‘xshash hisoblashlardan keyin ko‘rinadiki $f_1(x) = 0$ tenglama musbat ildizlarining yuqori chegarasi $c = 2{,}5$ ekan. Demak, (2.1.2) tenglamaning ildizlari $(-2{,}5\ , 1{,}5)$ oraliqda yotar ekan.

2.1-, 2.2-, 2.3-misollarning natijalarini solishtirsak, Nyuton metodi ildizlar chegaralari uchun yaxshiroq natija berishi ko‘rinadi.

2.3-§. TENGLAMA ILDIZLARINING SONINI ANIQLASH

2.7-teorema (Dekart teoremasi)**.** (2.5) tenglama koeffitsienglaridan tuzilgan sistemada ishora almashishlar soni qancha bo‘lsa (sanashda nolga teng koeffitsienglarga e’tibor berilmaydi) , tenglamaning shuncha musbat ildizlari mavjud yoki musbat ildizlar soni ishora almashishlar sonidan juft songa kam bo‘ladi.

2.5-misol: $f(x) = 2x^4 - 2{,}5x^2 + 8x - 8 = 0$ tenglamaning ildizlar sonini toping.

Yechish: $f(x)$ ning koeffitsientlar 2, 0, -2,5, 8, -8 sonlardan tuzilgan sistemada ishora almashishlar soni 3 ta. Demak, mazkur tenglamada musbat ildizlarning soni 3 ta yoki 1 ta. Tenglamadagi x ni $-x$ bilan almashtirgandagi

$f_1(x) = 2x^4 - 2{,}5x^2 - 8x - 8 = 0$ tenglamada koeffitsientlar 2, 0, -2,5, -8, -8 sonlardan tuzilgan sistemada ishora almashishlar soni 1 ta. Demak berilgan tenglama 1 ta manfiy ildizga ega.

Faraz qilaylik, (2.5) tenglama karrali ildizga ega bo‘lmasin. $f_1(x)$ orqali $f'(x)$ hosilani, $f_2(x)$ orqali $f(x)$ ni $f_1(x)$ ga bo‘lganda hosil bo‘ladigan qoldiqning teskari ishora bilan olinganini, $f_3(x)$ orqali $f_1(x)$

ni $f_2(x)$ ga bo‘lganda hosil bo‘ladigan qoldiqning teskari ishora bilan olinganini, va h.k. belgilaymiz va bu jarayonni qoldiqda o‘zgarmas son hosil bo‘lguncha davom ettiramiz. Natijada *Shturm qatori* deb ataluvchi

$$f(x),\ f_1(x),\ f_2(x), \dots,\ f_n(x)$$

funksiyalar ketma-ketligiga ega bo‘lamiz.

2.8-teorema (Shturm teoremasi)**.** $f(x)$ ko‘phadning ildizlaridan farqli a va b $(a < b)$ sonlarni olib, x ni a dan b gacha o‘zgartirganda $f(x)$ uchun tuzilgan Shturm qatorida nechta ishora almashinishlar yo‘qolsa, $f(x) = 0$ ning (a, b) oraliqda xuddi shuncha haqiqiy ildizlari mavjud bo‘ladi.

2.6-misol: Shturm metodi yordamida

$$f(x) = 2x^4 - 2{,}5x^2 + 8x - 8 = 0$$

tenglamaning ildizlari ajratilsin.

Yechish: Shturm qatorini tuzamiz: $f(x) = 2x^4 - 2{,}5x^2 + 8x - 8$; $f_1(x) = f'(x) = 8x^3 - 5x + 8$. Endi $f(x)$ ni $f_1(x)$ ga bo‘lamiz.

$$\begin{array}{l|l} \;\;2x^4 - 2{,}5x^2 + 8x - 8 & \underline{8x^3 - 5x + 8} \\ \underline{-2x^4 + 1{,}25x^2 - 2x} & -0{,}25x + 8 \\ -1{,}25x^2 + 6x - 8 & \end{array}$$

Qoldiqni 1,25 soniga bo‘lami va $-x^2 + 4{,}8x - 6{,}4$ ni hosil qilamiz. Demak, $f_2(x) = x^2 - 4{,}8x + 6{,}4$. Endi $f_1(x)$ ni $f_2(x)$ ga bo‘lamiz.

$$\begin{array}{l|l} \;\;8x^3 - 5x + 8 & \underline{x^2 - 4{,}8x + 6{,}4} \\ \underline{-8x^3 + 38{,}4x^2 - 51{,}2x} & -8x - 38{,}4 \\ \;\;38{,}4x^2 - 56{,}2x + 8 & \\ \;\;\underline{-38{,}4x^2 + 184{,}32x - 245{,}76} & \\ \;\;\;\;\underline{128{,}12x - 237{,}76} & \end{array}$$

Qoldiqni 128,12 soniga bo‘lami va $x - 1{,}9$ ni hosil qilamiz. Demak, $f_3(x) = -x + 1{,}9$. Endi $f_2(x)$ ni $f_3(x)$ ga bo‘lamiz.

$$\begin{array}{l|l} x^2 - 4{,}8x + 6{,}4 & \underline{-x + 1{,}9} \\ \;\;\underline{-x^2 + 1{,}9x} & x - 2{,}9 \\ -2{,}9x + 6{,}4 & \\ \underline{2{,}9\,x - 5{,}51} & \\ \;\;\;0{,}89 & \end{array}$$

Hosil bo‘lgan qoldiqni 0,89 ga bo‘lib, teskari ishorasi bilan olsak $f_4(x) = -1$ kelib chiqadi.

Shunday qilib, Shturm qatorining elementlari quyidagi funksiyalardan iborat:

$f(x) = 2x^4 - 2{,}5x^2 + 8x - 8$; $f_1(x) = 8x^3 - 5x + 8$; $f_2(x) = x^2 - 4{,}8x + 6{,}4$; $f_3(x) = -x + 1{,}9$; $f_4(x) = -1$. Endi hosil qilingan Shturm qatoridagi ishora almashinishlar jadvalini tuzamiz.

X ning qiymatlari	$-\infty$	-3	-1	0	1	2	$+\infty$
sign $f(x)$	+	+	-	-	-	+	+
sign $f_1(x)$	-	-	+	+	+	+	+
sign $f_2(x)$	+	+	+	+	+	+	+
sign $f_3(x)$	+	+	+	+	+	-	-
sign $f_4(x)$	-	-	-	-	-	-	-
ishora almashinishlar soni	3	3	2	2	2	1	1

2-ustun va oxirgi ustunlarga qarasangiz ishora almashinishlar soni ikkitaga kamaygan demak, $(-\infty, +\infty)$ oraliqda berilgan

$$2x^4 - 2{,}5x^2 + 8x - 8 = 0$$

tenglama ikkita ildizga ega. E’tiborni 3-ustun va 4-ustunlar hamda 6-ustun va 7-ustunlarga qaratsangiz ishora almashinishlar soni bittaga kamaygan. Demak, (-3, -1) oraliqda bitta manfiy ildiz va (1; 2) oraliqda bitta musbat ildiz bor ekan.

2.4-§. TENGLAMALARNING HAQIQIY ILDIZLARINI TOPISH

- **Kesmani teng ikkiga bo‘lish usuli** Algebraik yoki transsendent tenglamalarning haqiqiy ildizlarini taqribiy topishning bir nechta usullari mavjud. Quyida shu usullar to‘g‘risida gaplashamiz.

Bulardan biri *dixotomiya* usuli deyiladi, ya’ni kesmani teng ikkiga bo‘lish usuli. (Dixotomiya termini grekchadan olingan bo‘lib,

$\delta\iota\chi o\tau o\mu\iota\alpha$: $\delta\iota\chi\eta$ ikkiga + $\tau o\mu\eta$ "$bo‘lish$" , ikkiga bo‘lish degan manoni bildiradi.)

Dixotomiya, ya’ni kesmani teng ikkiga bo‘lish usulidan foydalanish uchun oldin $f(x) = 0$ tenglamaning ildizlari biror (grafik yoki analitik) usul bilan ajratib olingan bo‘lish kerak.

Berilgan tenglamadagi $f(x)$ funksiya $[a, b]$ intervalda uzluksiz bo‘lsin, $[a, b]$ intervalda (2.1) tenglamaning yagona x^* ildizi joylashgan bo‘lsin. Bu ildizni topish uchun

$$\xi_1 = \frac{a+b}{2}$$

nuqta bilan $[a, b]$ kesmani teng ikkiga bo‘lamiz. Agar $f(\xi_1) = 0$ bo‘lsa, ξ_1 tenglamaning ildizi bo‘ladi. Aks holda hosil bo‘lgan $[a, \xi_1]$ yoki $[\xi_1, b]$ kesmalardan biri tanlab olinadi. Bu kesmalar qiyidagicha tanlanadi: kesmalarning uchlarida $f(x)$ funksiyaning ishorasi tekshiriladi, qaysi kesmaning uchlarida $f(x)$ funksiyaning ishorasi turli xil bo‘lsa, o‘sha kesma tanlab olinadi. Yuqorida aytilganlarga ko‘ra, tanlab olingan kesmada (2.1) tenglamaning ildizi yotadi. Shunday qilib, tanlangan $[a_1, b_1]$ interval (bu erda $a_1 = a, b_1 = \xi_1$ yoki $a_1 = \xi_1$, $b_1 = b$) dastlabki $[a, b]$ intervalning yarmiga teng va x^* ildizini o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi ishlarni birma-bir bajaramiz, ya’ni $[a_1, b_1]$ intervalni ikkiga bo‘lib,

$$\xi_2 = \frac{a_1+b_1}{2}$$

nuqtani topamiz va $[a_1, \xi_2]$ $yoki$ $[\xi_2, b_1]$ kesmalarni hosil qilamiz va hokazo. Natijada, kichrayib boruvchi $[a_n, b_n]$ intervallar ketma-ketligi hosil bo‘ladi va uning uzunligi $a_n - b_n = \frac{1}{2^n}(b-a)$ga teng bo‘ladi. $[a_n, b_n]$ intervallarda (2.5) $tenglamaning\, x^*$ ildizi joylashgan bo‘ladi. x^* ildizni hisoblash aniqligi $[a, b]$ intervalni n marta bo‘lishdan hosil bo‘lgan $[a_n, b_n]$ intervalning o‘lchami bilan aniqlanadi. x^* ildizni hisoblash xatoligi $[a_n, b_n]$ intervalning o‘lchamidan oshib ketmaydi.

Demak, agar x^* ildizni hisoblash aniqligi ε bo‘lsa, u holda

$$\frac{1}{2^n}(b-a) \le \varepsilon$$

shart albatta bajarilishi kerak. Bundan ko‘rinadiki, agar ε berilgan bo‘lsa, $[a,b]$ kesmani ikkiga bo‘lishlar soni n ni hisoblash mumkin:

$$n \geq \frac{lg\frac{b-a}{\varepsilon}}{lg2} \approx 3.32lg\frac{b-a}{\varepsilon}.$$

2.7-misol. $f(x) = 2x^4 - 2{,}5x^2 + 8x - 8 = 0$ tenglamaning $[1, 2]$ kesmada yotuvchi ildizlarini kesmani teng ikkiga bo‘lish metodi bilan toping. To‘rt qadamgacha aniqlansin.

Yechish: Bizda $a = 1, b = 2$. $f(1) = -0{,}5, f(2) = 30$. $f(1) \cdot f(2) < 0$ demak, $[1, 2]$ kesmada ildiz bor.



$$\xi_1 = \frac{1+2}{2} = 1.5$$

$f(1{,}5) = 2 \cdot (1{,}5)^4 - 2{,}5 \cdot (1{,}5)^2 + 8 \cdot 1{,}5 - 8$ =8,5. $f(1{,}5) \cdot f(1) < 0$, $f(1{,}5) \cdot f(2) > 0$. Demak, ildiz $[1, 1{,}5]$ kesmada. $[1, 1{,}5]$ kesmani teng ikkiga bo‘lamiz.

$$\xi_2 = \frac{1+1{,}5}{2} = 1{,}25.$$

$f(1{,}25) = 2 \cdot (1{,}25)^4 - 2{,}5 \cdot (1{,}25)^2 + 8 \cdot 1{,}25 - 8 = 2{,}98$. $f(1{,}25) \cdot f(1) < 0$,

$f(1{,}5) \cdot f(1{,}25) > 0$. Demak, ildiz $[1, 1{,}25]$ kesmada. $[1, 1{,}25]$ kesmani teng ikkiga bo‘lamiz.

$$\xi_3 = \frac{1+1{,}25}{2} = 1{,}125$$

$f(1{,}125) = 2 \cdot (1{,}125)^4 - 2{,}5 \cdot (1{,}125)^2 + 8 \cdot 1{,}125 - 8 = 1{,}04$. $f(1{,}125) \cdot f(1) < 0$,

$f(1{,}125) \cdot f(1{,}25) > 0$. Demak, ildiz $[1, 1{,}125]$ kesmada. $[1, 1{,}125]$ kesmani teng ikkiga bo‘lamiz.

$$\xi_4 = \frac{1 + 1{,}125}{2} = 1.0625$$

$f(1{,}0625) = 2 \cdot (1{,}0625)^4 - 2{,}5 \cdot (1{,}0625)^2 + 8 \cdot 10625 - 8 = 0{,}23.$ $f(1{,}0625) \cdot f(1) < 0,$

$f(1{,}125) \cdot f(1{,}0625) > 0$. Demak, ildiz $[1, 1{,}0625]$ kesmada. $[1, 1{,}0625]$ kesmani teng ikkiga bo‘lamiz.

$$\xi_5 = \frac{1 + 1{,}0625}{2} = 1{,}03125$$

$f(1{,}03125) = 2 \cdot (1{,}03125)^4 - 2{,}5 \cdot (1{,}03125)^2 + 8 \cdot 103125 - 8 = \quad = -0{,}15.$

$f(1{,}03125) \cdot f(1) > 0,$

$f(1{,}03125) \cdot f(1{,}0625) < 0$. Demak, ildiz $[1{,}03125, 1{,}0625]$ kesmada. $[1{,}03125, 1{,}0625]$ kesmani teng ikkiga bo‘lamiz.

$$\xi_6 = \frac{1{,}03125 + 1{,}0625}{2} = 1{,}046875$$

$f(1{,}046875) = 0{,}04$. $f(1{,}03125) \cdot f(1{,}046875) < 0$. Demak, ildiz $[1{,}03125, 1{,}046875]$ kesmada. Ya’ni $a_6 = 1{,}03125$, $b_6 = \xi_6 = 1{,}046875$. Izlanayotgan ildizni x^* deylik.

Dastlabki $[1, 2]$ kesmani oltinchi bo‘lishdan keyin ma’lum bo‘ldiki, izlanayotgan x^* ildiz

$1{,}03125 < x^* < 1{,}046875$ shartni bajaradi va uni hisoblashdagi ε maksimal xatolik

$$\varepsilon < 1{,}046875 - 1{,}03125 = 0{,}0156$$

Xatolikni yana ham kamaytirish uchun

$$x^* = \frac{1{,}046875 + 1{,}03125}{2} = 1{,}0390625$$

deb olsak bo‘ladi.

- **Oddiy iteratsiya metod.** (2.1) tenglamani bu metod bilan yechish uchun uni $x = \varphi(x)$ ko‘rinishda yozib olish kerak bo‘ladi (*Masalan:* $\sin x - 3x + 2 = 0$ tenglama berilgan bo‘lsa, uni $x = \frac{2+\sin x}{3}$ ko‘rinishda yozish mumkin). Izlanayotgan x^* ildizning dastlabki taqribiy qiymati x_0 biror usul bilan aniqlangan bo‘lsin. Endi

$$x_{n+1} = \varphi(x_n) \qquad (n = 0,1,2, \dots) \qquad (2.8)$$

ifodadan foydalanib, $x_1, x_2, \dots$ sonli ketma ketlikni tuzamiz.

Agar (2.8) ketma ketlikning

$$\lim_{n\to\infty} x_n = \xi$$

limiti mavjud bo‘lib, $\varphi(x)$ funksiya uzluksiz bo‘lsa, u holda (2.8) dan

$$\xi = \lim_{n\to\infty} x_n = \lim_{n\to\infty} \varphi(x_n) = \varphi\left(\lim_{n\to\infty} x_n\right) = \varphi\left(\lim_{n\to\infty} x_{n+1}\right).$$

Shunday qilib, $\lim_{n\to\infty} x_n = \varphi\left(\lim_{n\to\infty} x_n\right)$ dan ko‘rinadiki $\lim_{n\to\infty} x_n$ limit (2.8) tenglamaning ildizi bo‘ladi. Va demak, dastlabki berilgan (2. 1) tenglamaning ham ildizi bo‘ladi.

Agar $[a, b]$ kesmada

$$|\varphi'(x)| \le m < 1 \tag{2.9}$$

shart bajarilsa, u holda n –chi yaqinlashish xatoligi

$$\varepsilon = |x_n - x^*| \le \frac{m^*}{1-m}|x_0 - \varphi(x_0)| \tag{2.10}$$

tengsizlik bilan baholanishi mumkin va $[a, b]$ kesmadan olingan ixtiyoriy x_0 uchun ketma ket yaqinlashish x^* ga intiladi. Bu iteratsion protses

$$|x_{n+1} - x_n| \le \varepsilon$$

shart bajarilganda to‘xtaydi.

Oddiy iteratsiya usuli birinchi tartibli tezlik bilan yaqinlashuvchi uslublar sinfiga kiradi.

2.8-misol. Ushbu $x^4 - 5x^2 + 8x - 8 = 0$ tenglamaning ildizlari iteratsiya usuli bilan, $\varepsilon = 0{,}5 \cdot 10^{-3}$ aniqlikda topilsin.

Echish: Tenglamaning ildizlari (-3, -2,9) va (1,5; 2) oraliqlarda yotadi (1-misolga o‘xshash topilgan). Tenglamani turlicha $x = \varphi(x)$ kanonik ko‘rinishda yozish mumkin:

$$x = -x^4 + 5x^2 - 7x + 8,$$
$$x = (-x^4 + 5x^2 + 8)/8,$$
$$x = \sqrt{(\,x^4 + 8x - 8)/5}$$

va hokazo. Ularning ichidan biz qarayotgan oraliqlarda (2.9) shartni bajariladiganini olishimiz kerak. Jumladan, (-3, -2,9) oraliqda $|((-\,x^4 + 5x^2 + 8)/8)'| > 1$, ya’ni iteratsion jarayon uzoqlashadi, (1,5; 2) da esa oraliqning chap qismidagina $|\varphi'(x)| < 1$ shart bajariladi. Usulning qo‘llanish mumkin bo‘lgan chegaralarini aniqlashtirish maqsadida $\varepsilon = 0{,}75$ bo‘lsin deb olamiz va

$$|\varphi'(x)| = \left|\frac{-2x^3 + 5x}{4}\right| \le 0{,}75$$

tengsizlikni tuzamiz. Uning yechimi $[-1,8229;\ -1]$, $[-0,8229;\ 0,8]$ va $[1;\ 1,8229]$ lardan iborat. Bu oraliqlar va ildizlar yotgan oraliqlarning umumiy qismi $[1,5;\ 1,8229]$ bo‘ladi va shu oraliqa nisbatan iteratsiya usulini qo‘llaymiz. Boshlang‘ich yaqinlashish $x_0 = 1,7$ bo‘lsin. ε aniqlikka erishish uchun zarur bo‘ladigan iteratsiya qadamlari soni n ni (2.10) munosabatdan foydalanib aniqlaymiz:

$$\frac{\varphi(1,7) - 1,7}{1 - 0,75} \cdot 0,75^n \leq 0,5 \cdot 10^{-3} \text{ yoki } 0,75^n \leq \frac{0,5 \cdot 10^3}{0,0622} \cdot 0,25 \approx 0,002,$$

bundan $n \geq 22$. Hisoblashlarni (2.8) munosobat bo‘yicha kompyuterda bajarib natijada $x_{22} = 1,7444102163572999$ ni olamiz yoki ko‘rsatilgan aniqlikkacha yaxlitlansa $x \approx 1,744$.

2.9-misol. $\sin x - 2x + 0,5 = 0$ tenglamaning $\left[0,\ {}^{\pi}/_{2}\right]$ kesmada joylashgan ildizini $\varepsilon \leq 0,0001$ aniqlikda toping.

Yechish: Tenglamani unga teng kuchli bo‘lgan tenglik bilan almashtiramiz. Uholda

$$x = 0.25 + 0.5 \sin x = \varphi(x),$$
$$\varphi'(x) = 0.5 \cos x$$

va ixtiyoriy x lar uchun, shu jumladan $\left[0,\ {}^{\pi}/_{2}\right]$ kesma nuqtalari uchun ham

$$|\varphi'(x)| \leq 0.5 < 1$$

tengsizlik bajariladi. Ko‘rinib turibdiki yaqinlashish sharti bajarilayapdi.

(2.8) formula

$$x_{n+1} = 0.25 + 0.5 \sin x_n \qquad (n = 0, 1, \quad 2, \dots).$$

Ko‘rilayotgan intervalning $x_0 = 0.5$ nuqtasidan boshlab ketma-ket quyidagilarni topamiz:

$x_1 = 0.25 + 0.5 \sin 0.5 = 0.4897, x_2 = 0.25 + 0.5 \sin 0.4897 = 0.4852,$
$x_3 = 0.25 + 0.5 \sin 0.4852 = 0.4832, x_4 = 0.25 + 0.5 \sin 0.4832 = 0.4823,$
$x_5 = 0.25 + 0.5 \sin 0.4823 = 0.4819,\ x_6 = 0.25 + 0.5 \sin 0.4819 = 0.48175,$
$x_7 = 0.25 + 0.5 \sin 0.48175 = 0.48165, x_8 = 0.25 + 0.5 \sin 0.48165 = 0.4816,$

$$x_8 \approx x_9 \approx x_{10} \approx j.$$

Keyingi yaqinlashishlar

$$|x_{n+1} - x_n| \leq \varepsilon = 0.0001$$

shartni bajaradi va $x^* \approx 0.4816$. Uni izlanayotgan ildizning qiymati sifatida olish mumkin.

- **Vestgeyn usuli.** Oddiy iteratsiya usulida $\varphi(x)$ ni iteratsiya jarayonini yaqinlashtiruvchi qilib tanlash yengil ish emas, Shu jihatdan Vestgeyn usuli qulayroq: u $\varphi'(x)$ ning ixtiyoriy qiymatida qo'llanilishi mumkin, $|\varphi'(x)| < 1$ da esa Vestgeyn jarayoni oddiy iteratsiya jarayoniga nisbatan tezroq yaqinlashadi. Bu usulni qo'llashda oldin oddiy iteratsiya bo'yicha $x_1 = \varphi(x_0)$ topiladi, so'ng $z_0 = x_0\,, z_1 = x_1$ deb olinadi. Keyingi yaqinlashishlar $x_{n+1} = \varphi(z_n)$ formula bo'yicha ketma-ket topiladi, bunda $z_n = qz_{n-1} + (1-q)x_n$ yoki

$$z_n = x_n - q(x_n - z_{n-1}), \qquad n = 1,2,\ldots \tag{2.11}$$

va har qadamda q ning qiymatini hisoblab turiladi:

$$q \approx \frac{(x_{n+1} - x_n)}{\big((x_{n+1} - x_n) + (z_{n+1} - z_n)\big)} \tag{2.12}$$

2.10-misol. Vestgey usuli qo'llanilib $2x^4 - 2.5x^2 + 8x - 8 = 0$ tenglamaning ildizlari $\varepsilon = 0.005$ aniqlikda topilsin.

Yechish: $x = (-2x^4 + 2.5x^2 + 8)/8$ va $x_0 = 1.7$ (chunki 3-misoldan ma'lumki (1; 2) oraliqda bitta musbat ildiz bor) bo'lsin. x_1 ni oddiy iteratsiya bo'yicha topamiz. Qolgan hisoblashlar (2.2.5), (2.2.6) munosabatlar bo'yicha bajariladi (jadvalga qarang):

n	x_n	z_n	q_n	ε
0	1,7		0,5	
1	-0,1849	-0,09245	0,953245505	1,8849
2	1,002652675	-0,041249028	0,958667349	1,187552675
3	1,000530989	0,001810502	-0,051827009	0,002121686
4	1,000001024	1,051734254	-0,00050502	0,000529965
5	1,039781137	1,0397751	1,429861315	0,039780112
6	1,045642091	1,037253108	1,755322311	0,005860954

Demak, taqribiy ildiz $x^* = 1{,}045642091$ deb olsak bo'ladi.

- **Nyuton usuli (urinmalar usuli).** Faraz qilaylik $f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmaning chetki nuqtalarida har xil ishoraga ega bo'lib, $f'(x)$, $f''(x)$ hosilalar mavjud va uzluksiz va $[a,b]$ da ishorasini saqlasin. $f(x) = 0$ tenglama $[a,b]$ da yagona ildizga ega bo‘lsin. $x_0 \in (a, b)$ bo‘lsin. Lagranj formulasidan foydalanib $f(x)$ funksiyani biror chiziqli funksiya bilan almashtiramiz:

$$f(x) = f(x_0) + f'(\xi)(x - x_0),$$

bu yerda $x < \xi < x_0$ yoki $x_0 < \xi < x$.

ξ noma’lum bo‘lgani uchun, ξ ning o‘rniga x_0 ni olamiz:

$$f(x) \approx f(x_0) + f'(x_0)(x - x_0).$$

Oxirgi munasobatni hisobga olib, ko‘rilayotgan $f(x) = 0$ tenglama o‘rniga $f(x_0) + f'(x_0)(x - x_0) = 0$ tenglama bilan almashtiramiz va uning

$$x_1 = -\frac{1}{f'(x_0)} f(x_0) \qquad (2.13)$$

ildizini $f(x) = 0$ tenglama ildizini taqribiy hisoblashning birinchi yaqinlashishi sifatida olamiz.

(2.13) ni umumlashtirib

$$x_n = x_{n-1} - \frac{1}{f'(x_{n-1})} f(x_{n-1}) \qquad (2.14)$$

ni olamiz.

Ko‘pincha Nyuton usulidan foydalanishda, dastlabki yaqinlashish x_0 sifatida (a, b) oraliqning $f(x)f''(x) > 0$ shart bajariladigan chekkasi olinadi va keyingi yaqinlashishlar (2.14) formula bilan aniqlanadi.

Nyuton usulining geometrik tahlili: Dastlabki yaqinlashish sifatida $x_0 \in (a, b)$ nuqtani olamiz. M$(x_0, f(x_0)$) nuqtadan $f(x)$ funksiya grafigiga urinma



o‘tkazamiz. Urinmaning Ox o‘qi bilan kesishish nuqtasini keyingi yaqinlashish sifatida olamiz, ya’ni x_1 deb olamiz. Keyin $M(x_1, f(x_1))$ nuqtadan urinma o‘tkazib, x_2 ni topamiz va hokoza.

Nyuton metodining yaqinlashishi haqida teoremalar.

2.9-teorema. Agar $f(x)$ va dastlabki yaqinlash x_0 quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

1. $f'(x_0) \neq 0$ va $\frac{1}{|f'(x_0)|} \leq B$;
2. $\left|\frac{f(x_0)}{f'(x_0)}\right| \leq \eta$ tengsizlik o‘rinli;
3. $f(x)$ funksiya $|x - x_0| \leq \delta$ oraliqda ikkinchi tartibli uzluksiz $f''(x_0)$ hosilaga ega va bu oraliqning barcha nuqtalarida $f''(x_0) \leq K$ bo‘lsa;
4. B, K, η sonlar uchun $h = BK\eta \leq \frac{1}{2}$ shart bajarilsa;
5. hamda

$$\frac{1 - \sqrt{1 - 2\,h}}{n}\,\eta \leq \delta$$

tengsizlik o‘rinli bo‘lsa, u holda:

1. $f(x) = 0$ tenglama $|x - x_0| \leq \delta$ oraliqda ξ yechimga ega bo‘ladi;
2. $x_{n+1} = x_n - \frac{f(x_n)}{f'(x_n)}$ $\quad (n = 0, 1, 2, \ \dots)$ ketma-ketlik yaqinlashishlarni qurish mumkin va ular ξ yechimga yaqinlashadi:

$$\lim_{n \to \infty} x_n = \xi \; ;$$

3. Yaqinlashish tezligi uchun

$$|\xi - x_n| \leq t^* - t_n$$

baho o‘rinli bo‘lib, bu yerda t_n esa

$$P(t) = \frac{K}{2} t^2 - \frac{t}{B} + \frac{\eta}{B} = 0$$

kvadrat tenglamaning kichik ildizi t^* uchun $t_0 = 0$ dan boshlab qurilgan Nyuton ketma-ketligining $n -$ elementidir:

$$t_n = t_n - \frac{P(t_n)}{P'(t_n)}\,.$$

2.10-teorema. Agar 2.9-teoremaning shartlari bajarilsa, $\xi - x_n$ ayirma uchun

$$|\xi - x_n| \leq \frac{1}{2^{n-1}} (2h)^{2^{n-1}} \eta$$

baho o‘rinli bo‘ladi.

- **Nyuton usulining modifikatsiyasi**

1) *O‘zgarmas qadamli ayirmalar usuli.* $f(x)=0$ tenglamani Nyuton usuli bilan taqribiy yechish jarayonida $f'(x)$ ni hisoblashga to‘g‘ri keladi. Lekin murakkab funksiyalar uchun $f'(x)$ ni hisoblash juda katta mehnat talab qiladi, shuning uchun $f'(x)$ ning o‘rniga

$$f'(x)=\lim_{h\to 0}\frac{f(x_n+h)-f(x_n)}{h}$$

tenglikning o‘ng tomonidagi ifodani qo‘ysak, (2.14) tenglik

$$x_n=x_{n-1}-\frac{f(x_{n-1})\cdot h}{f(x_{n-1}+h)-f(x_{n-1})} \qquad (2.15)$$

ko‘rinishga o‘tadi.

2) *O‘zgaruvchi qadamli ayirmalar usuli***.** Har bir iteratsiyada h qadamni o‘zgartirib turilsa, $h_1, h_2, \ldots$ larga ega bo‘lamiz. U holda (2.15) quyidagi ko‘rinishga o‘tadi:

$$x_n=x_{n-1}-\frac{f(x_{n-1})\cdot h_k}{f(x_{n-1}+h_k)-f(x_{n-1})}, \quad n\neq k. \qquad (2.16)$$

Bunday usulning yaxshi tomoni hosilaning qatnashmaganida bo‘lsa, kamchiligi esa yaqinlashish tezligining pastligiga.

- **Vatarlar usuli.** Vatarlar metodi yaqinlashuvchi iteratsion jarayonga asoslangan usullardan biridir.

Nyuton metodidagi hisoblashlarni soddalashtirish uchun undagi $f'(x)$ ni

$$f'(x)\approx\frac{f(x_n)-f(x_{n-1})}{x_n-x_{n-1}},$$

taqribiy ifodasi bilan almashtirsak, u holda navbatdagi yaqinlashishni topish qoidasi quyidagicha bo‘ladi:

$$x_{n+1}=x_n-\frac{x_n-x_{n-1}}{f(x_n)-f(x_{n-1})}f(x_n). \qquad (2.17)$$

x_n ketma-ketlik x^* izlanadigan ildizga intiladi.

Ko‘pincha vatarlar usulidan foydalanishda, dastlabki yaqinlashish x_0 sifatida (a,b) oraliqning $f(x)f''(x)<0$ shart bajariladigan chekkasi olinadi va keyingi yaqinlashishlar (2.15) formula bilan aniqlanadi.

Vatarlar usulining geometrik tahlili: faraz qilaylik $f(x)$ funksiya $[a, b]$ da monoton bo‘lib, x^* son $f(x) = 0$ tenglamaning $[a, b]$ da ajratilgan yagona ildizi bo‘lsin.



Рис. 2.8

$y = f(x)$ egri chiziqning $\big(a, f(a)\big)$ va $\big(b, f(b)\big)$ nuqtalardan o‘tuvchi vatarini o‘tkazamiz.

$f(x) = 0$ tenglama ildizining birinchi yaqinlashishi sifatida vatar bilan Ox o‘qining x_1 kesishish nuqtasini olamiz. Vatarning tenglamasini yozaylik:

$$\frac{y - f(a)}{f(b) - f(a)} = \frac{x - a}{b - a}.$$

bundan $\big(a, f(a)\big) = (x_{n-1};\ f(x_{n-1}))$, $(b, f(b)) = (x_n;\ f(x_n))$ desak,

$$\frac{y - f(x_n)}{f(x_n) - f(x_{n-1})} = \frac{x - x_n}{x_n - x_{n-1}}$$

hosil bo‘ladi.

2.11-misol. Nyuton usullari qo‘llanilib, $f(x) = 2x^4 - 2{,}5x^2 + 8x - 8 = 0$ tenglama yechilsin.

Yechish: $f(x)$ –uzluksiz differensiallanuvchi funksiya va $f(a)f(b) < 0$ bo‘lsin, ya’ni $f(x) = 0$ tenglamaning ildizi $\xi \in (a, b)$ bo‘lsin. x_0 boshlang‘ich qiymat sifatida (a, b) oraliqning $f(x)f''(x) > 0$ bajariladigan chekkasi olinadi. Keyingi yaqinlashishlar (2.14) munosobat bilan aniqlanadi.

Tenglamaning ildizlari $(-5,-0,5)$ va $(0{,}5,5)$ oraliqda yotar ekanligini ko‘rdik (1- misol). Birinchi oraliqni olamiz, ya’ni $(-5,-0,5)$ olamiz.

$f(x) = 2x^4 - 2{,}5 + 8x - 8$ funksiyaning hosilalarini topaylik:

$f'(x) = 8x^3 - 5x + 8$,

$f''(x) = 24x^2 - 5.$

$f(-5)f''(5) > 0$ bo‘lgani uchun dastlabki yaqinlashish sifatida $x_0 = -5$ ni olamiz, $x_1 = -0.5$ nuqta esa qo‘zg‘almas nuqta bo‘ladi. (2.14) formulasi bo‘yicha:

$$x_n = x_{n-1} - \frac{1}{f'(x_{n-1})} f(x_{n-1}).$$

n	x_n	$f(x_n)$	$f'(x_n)$	$\varepsilon = \lvert x_n - x_{n-1} \rvert$
0	-5	1139,5	-967	
1	-3,821613237	351,511419	-419,4009004	1,178386763
2	-2,983485759	104,3414154	-189,5350949	0,838127478
3	-2,432973382	27,81544754	-95,04828553	0,550512376
4	-2,14032794	5,396056902	-59,73716187	0,292645442
5	-2,049997956	0,415658924	-50,67080405	0,090329984
6	-2,041794831	0,003216219	-49,88776048	0,008203125
7	-2,041730362	1,97531E-07	-49,88163262	6,44691E-05
8	-2,041730358	0	-49,88163225	3,95999E-09

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki aniq ildiz -2,041730362 $< x < -2{,}041730357$. Demak, taqribiy ildiz $x^* \approx -2{,}041730358$ bo‘ladi.

2.12-misol. Vatar usuli qo‘llanilib, $f(x) = 2^4 - 2{,}5x^2 + 8x - 8 = 0$ tenglama yechilsin.

Yechish:$f(x)$ –uzluksiz differensiallanuvchi funksiya va $f(a)f(b) < 0$ bo‘lsin, ya’ni $f(x) = 0$ tenglamaning ildizi $\xi \in (a,b)$ bo‘lsin. x_0 boshlang‘ich qiymat sifatida (a,b) oraliqning $f(x)f''(x) < 0$ bajariladigan chekkasi olinadi. Keyingi yaqinlashishlar (2.17) munosobat bilan aniqlanadi. Tenglamaning ildizlari $(-5,-0,5)$ va $(0{,}5,5)$ oraliqda yotar ekanligini ko‘rdik (1- misol). Birinchi oraliqni olamiz, ya'ni $(-5, -0,5)$ olamiz. $x_0 = -5$ nuqtani olamiz, chunki $f(-5)f''(5) > 0$. $x_0 = -5$ nuqtaning yaqin atrofida 9 -teoremaning shartlari bajariladi, shuning uchun $x_1 = -4.9$ deb olsak bo'ladi.

n	$x(n)$	$z(n)$
0	-5	1139,5
1	-4,9	1045,7352
2	-3,784725185	336,2740809
3	-3,256101412	164,2588349
4	-2,751314034	65,66675706
5	-2,415102942	26,13866791
6	-2,192777242	8,676061889
7	-2,082317697	2,10394794
8	-2,046955995	0,261963362
9	-2,041926924	0,009806871
10	-2,041731334	4,86551E-05
11	-2,041730358	9,11078E-09
12	-2,041730358	0
13	-2,041730358	0

Demak, taqribiy ildiz $x^* \approx -2,041730358$ bo'ladi.

2.1-turdagi topshiriqlar

Berilgan tenglamalar aytilgan usullar bilan yechilsin.

№	Tenglamalar	Taqribiy hisoblash usuli va uning aniqligi ε .	Parametlar
1	$\frac{a}{b+x^2} - cx = 0$	Kesmani teng ikkiga bo'lish $\varepsilon = 10^{-3}$	$a = 1,05; b = 0,1; c = 2.03$
2	$ax + bsinx + c = 0$	Iteratsiya $\varepsilon = 10^{-4}$	$a = 4,02; b = 0,2; c = -0,33$
3	$tg(ax+b) + cx^2 = 0$	Nyuton $\varepsilon = 10^{-3}$	$a = 3,01; b = 4; c = -1$
4	$ax + bxsinx = 0$	Vatarlar $\varepsilon = 10^{-5}$	$a = 2,01; b = -1;$
5	$\sqrt{A - x^2} + bx^2 = 0$	Kesmani teng ikkiga bo'lish $\varepsilon = 4 \cdot 10^{-5}$	$a = 1,23; b = -3,14;$
6	$a + bx^2 + ce^x = 0$	Iteratsiya $\varepsilon = 5 \cdot 10^{-3}$	$a = 1,03; b = 1,01; c = -2,33$

7	$sinax + bx^3 + cx = 0$	Nyuton $\varepsilon = 6 \cdot 10^{-4}$	$a = 2,23; b = -3,14; c = 1,02$
8	$ax^3 + b + c\sqrt{x+2} = 0$	Vatarlar $\varepsilon = 7 \cdot 10^{-5}$	$a = 1,11; b = -10,11; c = -2,02$
9	$\left(\frac{x+a}{b}\right) \cdot c^x + d = 0$	Kesmani teng ikkiga bo‘lish $\varepsilon = 9 \cdot 10^{-4}$	$a = 0,1; b = 2,23;$ $c = 2; d = -1,03$
10	$ax + b + cx = 0$	Iteratsiya $\varepsilon = 10^{-4}$	$a = 3,51; b = 1,47; c = 2,004;$
11	$(a+x)^2 + bx + c = 0$	Nyutona $\varepsilon = 10^{-5}$	$a = -2,13; b = 1,47; c = -3,14;$
12	$\mathrm{acos}(x+b) + cx^3 = 0$	Vatarlar $\varepsilon = 2 \cdot 10^{-4}$	$a = 2,13; b = 3,62; c = -4,12;$
13	$(x+a)^5 + bx = 0$	Kesmani teng ikkiga bo‘lish $\varepsilon = 3 \cdot 10^{-4}$	$a = 0,29; b = 2;$
14	$ax^2 + b + c\sqrt{x+d} = 0$	Iteratsiya $\varepsilon = 10^{-3}$	$a = 1,02; b = 4,37; c = -2,1; d = -0,5;$
15	$xa(bx+c)^2 - 14 = 0$	Nyuton $\varepsilon = 4 \cdot 10^{-3}$	$a = 3,23; b = 1,2; c = 3,22;$
16	$\ln(x+a) + (x+b)^5 = 0$	Vatarlar $\varepsilon = 3 \cdot 10^{-5}$	$a = 2,11; b = -4,03$
17	$(x+a)^2 - e^{bx} = 0$	Kesmani teng ikkiga bo‘lish $\varepsilon = 10^{-4}$	$a = -0,4; b = 0,53;$
18	$(a - bsinx)^2 + clnx = 0$	Iteratsiya $\varepsilon = 0,5 \cdot 10^{-3}$	$a = 1,23; b = 1,45;$ $c = 1,004;$
19	$(x+a)^3 + +bsinc^x = 0$	Nyuton $\varepsilon = 2 \cdot 10^{-4}$	$a = -3,21; b = -1,45; c = 2,12;$
20	$ax^2cosbx - cx = 0$	Vatarlar $\varepsilon = 7 \cdot 10^{-5}$	$a = 2,93; b = 3,01;$ $c = 2,1;$
21	$\frac{a}{\sqrt{bx+c}} + dcosbx = 0$	Kesmani teng ikkiga bo‘lish $\varepsilon = 2 \cdot 10^{-5}$	$a = 2,07; b = 1,19;$ $c = 1,13;\ d = -1,001$
22	$\frac{ax}{b+cx^2} + dlg(ax) = 0$	Iteratsiya $\varepsilon = 10^{-5}$	$a = 1,01; b = 0,98;$ $c = 2,03;$ $d = -2,04$
23	$a\sqrt{\lvert sinx \rvert} + blgx = 0$	Nyuton $\varepsilon = 4 \cdot 10^{-5}$	$a = 2,06; b = -1,06;$
24	$\frac{a}{x} + be^{ex} = 0$	Vatarlar $\varepsilon = 5 \cdot 10^{-5}$	$a = 2,37;$ $b = -0,99; c = 0,56;$

Bu 1-topshiriqni bajarish uchun namunalar yuqorida ko'rsatilgan 12 ta misollar bo'ladi.

2.2-turdagi topshiriqlar.

Topshiriqlarni bajarish uchun namuna.

1-misol. Ildizlarini analitik usulda ajrating

$$5^x - 6x - 3 = 0.$$

Yechish: $f(x) = 5^x - 6x - 3$ deb belgilab olamiz. Hosilasini hisoblaymiz $f'(x) = 5^x \ln 5 - 6$.

$f'(x) = 0$ tenglamani yechamiz

$$5^x \ln 5 - 6 = 0;\ \ 5^x = \frac{6}{\ln 5};\ \ xlg5 = lg6 - \lg(ln5);$$

$$x = \frac{lg6 - \lg(\ln 5)}{lg5} = \frac{0{,}7782 - 0{,}2065}{0{,}6990} = \frac{0{,}5717}{0{,}6990} \approx 0{,}82.$$

x quyidagi xolatlarda bo'ladi deb, $f(x)$ funksiyaning ishoralari jadvalini tuzamiz:

a) Funksiyaning kritik qiymati (hosilasining ildizi) yoki unga yaqin;

b) Chegaraviy qiymat (noma'lumning qabul qilish mumkin bo'lgan qiymatlar to'plamidan):

x	$-\infty$	1	$+\infty$
$signf(x)$	+	-	+

Jadvaldan ko'rinadiki funksiyaning ishorasi ikki marta o'zgaradi, demak tenglama ikkita ildizga ega. Ildizlarni yakkalash uchun, ildiz mavjud bo'lgan oraliqni uzunligi 1 dan oshmaydigan qilib, bo'laklarga ajratish kerak. Buning uchun $f(x)$ funksiyaning ishoralari jadvalini tuzamiz.

x	-1	0	1	$+\infty$
$signf(x)$	+	-	-	+

Bundan ko'rinadiki, x_1 va x_2 ildizlar quyidagi oraliqlarda bo'ladi:

$x_1 \in [-1,\ 0];\ \ \ x_2 \in [1,\ 2]$.

2-misol. Ildizlarini analitik usulda ajrating va ulardan birini tajriba usuli bilan 0.01 aniqlikkacha toping

$$x^4 - x^3 - 2x^2 + 3x - 3 = 0.$$

Yechish: $f(x) = x^4 - x^3 - 2x^2 + 3x - 3$ deb olsak,

$f'(x) = 4x^3 - 3x^2 - 4x + 3$

bo‘ladi. Hosilaning ildizini topamiz:

$$4x^3 - 3x^2 - 4x + 3 = 0; \quad 4x(x^2 - 1) - 3(x^2 - 1) = 0;$$

$$(x^2 - 1)(4x - 3) = 0; \quad x_1 = -1;\ x_2 = 1;\ x_3 = \frac{3}{4}.$$

$f(x)$ funksiyaning ishoralari jadvalini tuzamiz:

x	$-\infty$	-1	$3/4$	1	$+\infty$
$signf(x)$	+	-	-	-	+

Jadvaldan ko‘rinadiki, tenglama ikkita haqiqiy ildizga ega bo‘ladi:

$$x_1 \in [-\infty, -1]; \quad x_2 \in [1, +\infty].$$

Tenglamaning ildizlari joylashgan oraliqlarni yana ham kichik bo‘laklarga ajratamiz va quyidagiga ega bo‘lamiz:

x	-2	-1	1	2
$signf(x)$	+	-	-	+

Demak, $x_1 \in [-2, -1]; \quad x_2 \in [1,\ 2]$

Ildizlardan birini, masalan $x_1 \in [-2, -1]$ ni, tajribalar usuli bilan yuzdan bir aniqlikda topamiz. Barcha hisoblashlarni quyidagi jadvaldan foydalanib bajarsak qulay bo‘ladi:

n	a_n^+	b_n^-	$x_n = \frac{a_n + b_n}{2}$	x_n^4	$-x_n^3$	$-2x_n^2$	$3x_n$	$f(x_n)$
0	-2	-1	-1,5	5,0625	3,375	-4,5	-4,5	-35625
1	-2	-1,5	-1,75	9,3789	5,3594	-6,125	-5,25	0,3633
2	-	-1,5	-1,63	7,0591	4,3307	-	-4,89	-
3	1,75	-	-1,69	8,1573	4,8268	5,3138	-5,07	1,8140
4	-	1,63	-1,72	8,7521	5,0884	-	-5,16	-
5	1,75	-	-1,73	8,9575	5,1777	5,7122	-5,19	0,7981
6	-	1,69	-1,74	9,1664	5,2680	-	-5,22	-
7	1,75					5,9168		1,2363

	-1,75 -1,75 -1,74	-1,72 -1,73 -1,73				-5,9858 -6,0552		-0,0406 0,1592

Javob: $x_1 \approx -1.73$.

3-misol. Ildizlarini grafik usulda ajrating

$$2\cos(x+\frac{\pi}{6}) + x^2 = 3x - 2.$$

Yechish: $2\cos(x+\frac{\pi}{6}) + x^2 = 3x - 2$ tenglamani $2\cos\left(x+\frac{\pi}{6}\right) = -x^2+3x-2$ ko‘rinishda yozib olamiz. Tenglikning ikkala qismini $y_1=2\cos\left(x+\frac{\pi}{6}\right)$, $y_2 = -x^2+3x-2$ kabi belgilab olib, y_1 va y_2 funksiyalarning grafigini yasaymiz (1-rasm).



1-rasm



2-rasm

Grafikdan ko‘rinadiki, tenglama ikkita ildizga ega: $x_1 \approx 1{,}1$; $x_2 \approx 2{,}9$.

4-misol. Ildizlarini grafik usulda ajrating va ulardan birini tajriba usuli bilan 0.01 aniqlikkacha toping

$$x^2\log_{0,5}(x+1) = 1.$$

Yechish:

$x^2 \log_{0,5}(x+1) = 1$ tenglamani $\log_{0,5}(x+1) = \frac{1}{x^2}$ ko‘rinishda yozib olamiz. Tenglikning ikkala qismini y_1=$\log_{0,5}(x+1)$, $y_2 = \frac{1}{x^2}$ kabi belgilab olib, y_1 va y_2 funksiyalarning grafigini yasaymiz (2-rasm). Grafikdan ko‘rinadiki, tenglama bitta ildizga ega: $x_1 \approx$ -0,8.

Bu ildizni tajriba usuli bilan aniqlashtirish uchun, chekkalarida $f(x) == x^1 \log_{0,5}(x+1) - 1$ funksiya har xil ishoraga ega bo‘ladigan oraliqni tanlab olamiz. Jadval tuzamiz:

x	0.5	-0.8
$signf(x)$	-	+

Hisoblashlar qulay bo‘lsin uchun o‘nli logarifmga o‘tib olamiz.

$$f(x) = x^2 \frac{\lg(x+1)}{\lg 0,5} - 1 = x^2 \frac{\lg(x+1)}{-0,301} - 1.$$

Qolgan hisoblashlarni jadvalda bajaramiz:

n	a_n^+	b_n^-	$x_n = \frac{a_n + b_n}{2}$	x_n^2	$\lg(x_n+1)$	$f(x_n)$
0	$-0,8$	-0,5	-0,65	0,4225	-0,4559	-0,360
1	$-0,8$	-0,65	-0,73	0,5329	-0,5686	-0,0067
2	$-0,73$	-0,65	-0,69	0,4761	-0,5086	-0,196
3	$-0,73$	-0,69	-0,71	0,5041	-0,5376	-0,099
4	$-0,73$	-0,71	-0,72	0,5184	-0,5528	-0,048
5	$-0,73$	-0,72				

Javob: $x_1 \approx -73.$

Mustaqil yechish uchun:

Quyidagi misollarga mos amallarni bajaring (Yuqoridagi na’munaga qarang)**:**

1) Ildizlarini analitik usulda ajrating.

2) Ildizlarini analitik usulda ajrating va ulardan birini tajriba usuli bilan 0.01 aniqlikkacha toping.

3) Ildizlarini grafik usulda ajrating.

4) Ildizlarini grafik usulda ajrating va ulardan birini tajriba usuli bilan 0.01 aniqlikkacha toping.

Misollar:

№1. 1) $2^x + 5x - 3 = 0$;
2) $3x^4 + 4x^3 - 12x^2 - 5 = 0$;
3) $0{,}5^x + 1 = (x-2)^2$;
4) $(x-3)\cos x = 1,\ -2\pi \le x \le 2\pi$.

№ 3. 1) $5^x + 3x = 0$;
2) $x^4 - x - 1 = 0$;
3) $x^2 - 2 + 0{,}5^x = 0$;
4) $(x-1)^2 \cdot lg(x+11)=1$.

№ 5. 1) $3^{x-1} - 2 - x = 0$;
2) $3x^4 + 8x^3 + 6x^2 - 10 = 0$;
3) $(x-4)^2 \cdot \log_{0,5}(x-3) = -1$;
4) $5\sin x = x$.

№ 7. 1) $e^{-2x} - 2x + 1 = 0$;
2) $x^4 + 4x^3 - 8x^2 - 17 = 0$;
3) $0{,}5^x - 1 = (x+2)^2$;
4) $x^2\cos 2x = -1$.

№ 9. 1) $arctg(x-1) + 2x = 0$;
2) $3x^4 + 4x^3 - 12x^2 + 1 = 0$;
3) $(x-2)^2 2^x = 1$;
4) $x^2 - 20\sin x=0$.

№ 11. 1) $3^x + 2x - 2 = 0$;
2) $2x^4 - 8x^3 + 8x^2 - 1 = 0$;
3) $[(x-2)^2\text{-}1]2^x = 1$;
4) $(x-2)\cos x =1,\ -2\pi\le x \le 2\pi$.

№ 13. 1) $3^x + 2x - 5 = 0$;
2) $x^4 - 4x^3 - 8x^2 + 1 = 0$;
3) $x^2 - 3+0{,}5^x = 0$;
4) $(x-1)^2 \cdot lg(x+11)=1$.

№ 15. 1) $3^{x-1} - 4 - x = 0$;
2) $2x^3 - 9x^2 - 60x + 1 = 0$;
3) $(x-3)^2 \cdot \log_{0,5}(x-2) = -1$;
4) $5\sin x = x - 1$.

№ 17. 1) $e^x + x + 1 = 0$;
2) $2x^4 - x^2 - 10 = 0$;
3) $0{,}5^x - 3 = (x+2)^2$
4) $x^2\cos x =-1,\ -2\pi\le x \le 2\pi$.

№ 2. 1) $arctgx - \frac{1}{3x^3} = 0$;
2) $2x^3 - 9x^2 - 60x + 1 = 0$;
3) $[\log_2(-x)] \cdot (x+2) = -1$;
4) $\sin\left(x + \frac{\pi}{3}\right) - 0{,}5x = 0$

№ 4. 1) $2e^x = 5x + 2$;
2) $2x^4 - x^2 - 10 = 0$;
3) $xx \cdot \log_3(x+1) = 1$;
4) $\cos(x+0{,}5) = x^3$.

№ 6. 1) $2arctgx - \frac{1}{2x^3} = 0$;
2) $x^4 - 18x^2 + 6 = 0$;
3) $x^2 \cdot 2^x = 1$;
4) $\tan x = x + 1\ \ \pi/2 \le x \le \pi/2$.

№ 8. 1) $5^x - 6x - 3 = 0$;
2) $x^4 - x^3 - 2x^2 + 3x - 3 = 0$;
3) $2^x - 0{,}5^x - 3 = 0$;
4) $xlg(x+1) = 1$.

№ 10. 1) $2arctgx - x + 3 = 0$;
2) $3x^4 - 8x^3 - 18x^2 + 2 = 0$;
3) $2\sin\left(x + \frac{\pi}{3}\right) = 0{,}5x^2 - 1$;
4) $2lgx - \frac{x}{2} + 1 = 0$.

№ 12. 1) $2arctgx - 3x + 2 = 0$;
2) $2x^4 - 8x^3 + 8x^2 - 1 = 0$;
3) $[\log_2(x+2)](x-1) = 1$;
4) $\sin(x-0{,}5) - x + 0{,}8 = 0$.

№ 14. 1) $3e^x + 3x + 1 = 0$;
2) $3x^4 + 4x^3 - 12x^2 - 5 = 0$;
3) $x\log_3(x+1) = 2$;
4) $\cos(x+0{,}3) = x^2$.

№ 16. 1) $arctgx - \frac{1}{3x^3} = 0$;
2) $x^4 - x - 1 = 0$;
3) $(x-1)^2 2^x = 1$;
4) $tan^3 x = x - 1, -\pi/2 \le x \le \frac{\pi}{2}$.

№ 18. 1) $3^x - 2x + 5 = 0$;

№ 19. 1) $arctg(x-1)+3x-2=0$;
2) $x^4-18x^2+6=0$;
3) $(x-2)^2 2^x=1$;
4) $x^2-20\sin x=0$.

№ 21. 1) $2^x-3x-2=0$;
2) $x^4-x^3-2x^2+3x-3=0$;
3) $(0,5)^x+1=(x-2)^2$;
4) $(x-3)\cos x=1$, $-2\pi\le x\le 2\pi$.

№ 23. 1) $3^x+2x-3=0$;
2) $3x^4-8x^3-18x^2+2=0$;
3) $x^2-4+0,5^x=0$;
4) $(x-2)^2\cdot lg(x+11)=1$.

№ 5. 1) $3^x+2+x=0$;
2) $2x^3-9x^2-60x+1=0$;
3) $(x-4)^2\cdot\log_{0,5}(x-3)=-1$;
4) $5\sin x=x-0,5$.

№ 27. 1) $e^{-2x}-2x+1=0$;
2) $2x^4-x^2-10=0$;
3) $0,5^x-3=-(x+1)^2$
4) $x^2\cos 2x=-1$, $-2\pi\le x\le 2\pi$.

№ 29. 1) $arctg(x-1)+2x=0$;
2) $x^4-18x^2+6=0$;
3) $(x-2)^2 2^x=1$;
4) $x^2-10\sin x=0$.

2) $3x^4+8x^3+6x^2-10=0$;
3) $2x^2-0,5^x-2=0$;
4) $xlg(x+1)=1$.

№ 20. 1) $2arctgx-x+3=0$;
2) $x^4+4x^3-8x^2-17=0$;
3) $2\sin\left(x+\frac{\pi}{3}\right)=x^2-0,5$;
4) $2lgx-\frac{x}{2}+1=0$.

№ 22. 1) $arctgx+2x-1=0$;
2) $3x^4+4x^3-12x^2+1=0$;
3) $(x+2)\log_2(x)=1$;
4) $\sin(x+1)=0,5x$.

№ 24. 1) $2e^x-2x-3=0$;
2) $3x^4+4x^3-12x^2-5=0$;
3) $x\log_3(x+1)=1$;
4) $\cos(x+0,5)=x^3$.

№ 26. 1) $arctg(x-1)+2x-3=0$;
2) $x^4-x-1=0$;
3) $(x-1)^2 2^x=1$;
4) $tan^3x=x-1, -\pi/2\le x\le\frac{\pi}{2}$.

№ 28. 1) $3^x-2x-5=0$;
2) $3x^4+8x^3+6x^2-10=0$;
3) $2x^2-0,5^x-3=0$;
4) $xlg(x+1)=1$.

№ 30. 1) $3^x+5x-2=0$;
2) $3x^4+4x^3-12x^2+1=0$;
3) $(0,5)^x+1=(x-2)^2$;
4) $(x-3)\cos x=1$, $-2\pi\le x\le 2\pi$.

2.3-turdagi topshiriqlar.

Topshiriqlarni bajarish uchun na'muna.

1) Tenglama ildizlarini grafik usulda ajrating va ulardan birini iteratsiya usuli bilan 0,001 aniqlikda toping.

2) Tenglama ildizlarini analitik usulda ajrating va ulardan birini iteratsiya usuli bilan 0,001 aniqlikda toping.

Misolning berilishi: 1) $2x+lg(2x+3)=1$; 2) $x^3-2x^2+7x+3=0$.

Yechish: 1) $2x + lg(2x + 3) = 1$ tenglamaning ildizlarining taqribiy qiymatini grafik usulda topamiz; buning uchun berilgan tenglamani



3-rasm

$lg(2x + 3) = 1 - 2x$ ko‘rinishda yozamiz (3-rasm). Grafikdan ko‘rinadiki, tenglama [0; 0,5] kesmada yotuvchi bitta ildizga ega. Uni iteratsiya usuli bilan berilgan aniqlikda topish uchun tenglamani $x = \varphi(x)$ ko‘rinishga keltiramiz. $|k| \geq Q/2$ deb olib $\varphi(x)$ funksiyani $\varphi(x) = x - \frac{f(x)}{k}$ munosobatdan qidiramiz, bunda $Q = ax|f'(x)|$;

[0; 0,5] kesmada k bilan $f'(x)$ bir xil ishorali bo‘ladi. Quyidagilarni topamiz:

$$f\ (x) = 2x + lg(2x + 3) - 1; \quad f\ '(x) = 2 + \frac{0{,}8686}{2x + 3};$$

$$Q = \max_{[0;0,5]} f\ '(x) = 2 + \frac{0{,}8686}{2 * 0 + 3} \approx 2{,}2895;\ f\ '(x) > 0\ pri\ 0 \leq x \leq 0{,}5.$$

$k = 2$ desak, u holda

$$\varphi(x) = x - \frac{f(x)}{2} = x - x - \frac{\lg(2x + 3)}{2} + \frac{1}{2} = \frac{1}{2} - \frac{1}{2}\lg(2x + 3).$$

Dastlabki yaqinlashish sifatida $x_0 = 0$ ni olamiz, boshqa barcha yaqinlashishlarni

$$x_{n+1} = \frac{1}{2} - \frac{1}{2}\lg(2x_n + 3)$$

tenglikdan aniqlaymiz.

Hisoblashlarni jadvalda bajarish qulayroq:

n	x_n	$2x_n + 3$	$\lg(2x_n + 3)$	$\frac{1}{2}\lg\ (2x_n + 3)$
0	0	3	0,4771	0,2386
1	0,2614	3,5228	0,5469	0,2734
2	0,2266	3,4532	0,5382	0,2691

3 4 5	0,2309 0,2303 0,2304	3,4618 3,4606	0,5394 0,5392	0,2697 0,2696

Javob: $x \approx 0{,}230$.

2) $x^3 - 2x^2 + 7x + 3 = 0$ tenglamaning ildizini analitik usulda ajratamiz.

Quyidagilarni topamiz

f (x)=$x^3 - 2x^2 + 7x + 3$; $f'(x) = 3x^2 - 4x + 7$; $D = 4 - 21 * 4 < 0$.

Jadval tuzamiz:

-	-∞	*-1*	*0*	+∞
sign f(x)	-	-	+	+

Tenglama [-1, 0] kesmada bitta haqiqiy ildizga ega bo‘ladi. Berilgan tenglamani

1≤ $x \leq 0$ da $|\varphi'(x)| < 1$ bo‘ladigan qilib $x = \varphi(x)$ ko‘rinishda keltirib olamiz. Q=$\max\limits_{[-1,0]}|f'(x)| = f'(-1) = 3 + 4 + 7 = 14$ bo‘lgani uchun, k=10 deb olsak bo‘ladi. U holda

$$\varphi(x) = x - \frac{\varphi(x)}{k} = x - 0{,}1x^3 + 0{,}2x^2 - 0{,}7x - 0{,}3 =$$
$$= -0{,}1x^3 + 0{,}2x^2 + 0{,}3x - 0{,}3.$$

Dastlabki yaqinlashish sifatida $x_0 = 0$ ni olamiz, boshqa barcha yaqinlashishlarni

$$x_{n+1} = \varphi(x_n)$$

tenglikdan aniqlaymiz.

Hisoblashlarni jadvalda bajarish qulayroq:

n	x_n	x_n^2	x_n^3	$\varphi(x_n)$
0 1 2 3 4 5	0 -0,3 -0,3693 -0,3785 -0,3795 -0,3796	0 0,09 0,1364 0,1433 0,1440	0 -0,027 -0,0504 -0,0542 -0,0546	-0,3 -0,3693 -0,3785 -0,3795 -0,3796

Javob: $x \approx -0{,}380$.

Mustaqil yechish uchun:

Quyidagi misollarga mos amallarni bajaring (Yuqoridagi na'munaga qarang)**:**

1) Tenglama ildizlarini grafik usulda ajrating va ulardan birini iteratsiya usuli bilan 0,001 aniqlikda toping.

2) Tenglama ildizlarini analitik usulda ajrating va ulardan birini iteratsiya usuli bilan 0,001 aniqlikda toping.

Misolning berilishi:

№ 1. 1) $lnx + (x+1)^3 = 0$; 2) $x^3 + 2x^2 + 2 = 0$.
№ 2. 1) $x \cdot 2^x = 1$; 2) $x^3 - 3x^2 + 9x - 10 = 0$.
№ 3. 1) $\sqrt{x+1} = \frac{1}{x}$; 2) $x^3 - 2x + 2 = 0$.
№ 4. 1) $x - \cos x = 0$; 2) $x^3 + 3x - 1 = 0$.
№ 5. 1) $3x + \cos x + 1 = 0$; 2) $x^3 + x - 3 = 0$.
№ 6. 1)$x + ln\, x = 0{,}5$; 2) $x^3 + 0{,}4x^2 + 0{,}6x - 1{,}6 = 0$.
№ 7. 1)$2 - x = lnx$; 2) $x^3 - 0{,}2x^2 + 0{,}4x - 1{,}4 = 0$.
№ 8. 1) $(x-1)^2 = \frac{1}{2}e^{x;}$ 2) $x^3 - 0{,}1x^2 + 0{,}4x + 2 = 0$.
№ 9. 1) $(2-x)e^x = 0{,}5$; 2) $x^3 + 3x^2 + 12x + 3 = 0$.
№ 10. 1) $2{,}2x - 2^x = 0$; 2) $x^3 - 0{,}2x^2 + 0{,}5x - 1 = 0$.
№ 11. 1) $x^2 + 4\sin x = 0$; 2) $x^3 - 0{,}1x^2 + 0{,}4x + 1{,}2 = 0$.
№ 12. 1) $2x - lgx = 7$; 2) $x^3 - 3x^2 + 6x - 5 = 0$.
№ 13. 1) $5x - 8lnx = 8$; 2) $x^3 - 0{,}2x^2 + 0{,}5x - 1{,}4 = 0$.
№ 14. 1) $3x - e^x = 0$; 2) $x^3 + 2x + 4 = 0$.
№ 15. 1) $x(x+1)^2 = 1$; 2) $x^3 - 3x^2 + 12x - 12 = 0$.
№ 16. 1)$x = (x+1)^3$; 2) $x^3 + 0{,}2x^2 + 0{,}5x + 0{,}8 = 0$.
№ 17. 1) $x^2 = \sin x$; 2) $x^3 + 4x - 6 = 0$.
№ 18. 1) $x^3 = \sin x$; 2) $x^3 + 0{,}1x^2 + 0{,}4x - 1{,}2 = 0$.
№ 19. 1)$x = \sqrt{lg(x+2)}$; 2) $x^3 + 3x^2 + 6x - 1 = 0$.
№ 20. 1) $x^2 = ln(x+1)$; 2) $x^3 - 0{,}1x^2 + 0{,}4x - 1{,}5 = 0$.
№ 21. 1) $2x + lgx = -0{,}5$; 2) $x^3 - 3x^2 + 6x - 2 = 0$.
№ 22. 1) $2x + \cos x = 0{,}5$; 2) $x^3 - 0{,}2x^2 + 0{,}3x - 1{,}2 = 0$.
№ 23. 1) $\sin 0{,}5x + 1 = x^2; x > 0$; 2) $x^3 - 3x^2 + 12x - 9 = 0$.
№ 24. 1) $0{,}5x + lg(x-1) = 0{,}5$; 2) $x^3 + 0{,}2x^2 + 0{,}5x - 2 = 0$.
№ 25. 1) $\sin(0{,}5 + x) = 2x - 0{,}5$; 2) $x^3 + 3x + 1 = 0$.
№ 26. 1) $lg(2+x) + 2x = 3$; 2) $x^3 + 0{,}2x^2 + 0{,}5x - 1{,}2 = 0$.
№ 27. 1) $lg(1+2x) = 2 - x$; 2) $x^3 - 3x^2 + 9x + 2 = 0$.
№ 28. 1) $2\sin(x - 0{,}6) = 1{,}5 - x$; 2) $x^3 - 0{,}1x^2 + 0{,}4x - 1{,}5 = 0$.
№ 29. 1) $x + lg(1+x)$=1,5; 2) $x^3 - 3x^2 + 6x + 3 = 0$.
№ 30. 1) $x + \cos x = 1$; 2) $x^3 - 0{,}1x^2 + 0{,}3x - 0{,}6 = 0$.

2.4-turdagi topshiriqlar.

Topshiriqlarni bajarish uchun na'muna.

Misol. Vatarlar va urinmalarning aralash (kombinirovanniy) usuli bilan uchinchi darajali tenglamani 0,001 aniqlikda hisoblang.

$$x^3 - 2x^2 - 4x + 7 = 0.$$

Yechish. Ildizlarni analitik usulda ajratamiz. Ma'lumki

$$f(x) = x^3 - 2x^2 - 4x + 7, f'(x) = 3x^2 - 4x - 4;$$

$$x_{1,2} = \frac{2 \pm \sqrt{4+12}}{3} = \frac{2 \pm 4}{3}\ x_1 = -\frac{2}{3};\quad x_2 = 2.$$

$f(x)$ funksiyaning ishoralar almashinish jadvalini tuzamiz:

x	$-\infty$	$-2/3$	2	$+\infty$
sign $f(x)$	–	+	–	+

Demak, tenglama uchta xaqiqiy ildizga ega:

$$x_1 \in \left]-\infty, -\frac{2}{3}\right];\ \ x_2 \in \left[-\frac{2}{3}, 2\right];\ \ x_3 \in [2, +\infty[.$$

Ildizni o'z ichiga olgan oraliqni uzunligi 1 ga teng bo'lgan oraliqlarga bo'lamiz:

x	-2	-1	0	1	2	3
sign $f(x)$	–	+	+	+	–	+

Demak,

$x_1 \in [-2, -1];\ \ x_2 \in [1, 2];\ \ x_3 \in [2, 3].$ (*)

Vatarlar va urinmalarning aralash (kombinirovanniy) usulini qo'llab ildizni aniqlaymiz:

1) x_1 ildizni topamiz. (*) dan $x_1 \in [-2, -1]$.

$$f(-2) < 0;\ \ f(-1) > 0;\ \ f''(x) = 6x - 4.$$

$-2 \le x \le -1$ da $f''(x) < 0$ bo'ladi.

Hisoblashlar uchun quyidagi formulalardan foydalanamiz

$$x_{n+1} = x_n - \frac{f(x_n)}{f'(x_n)}; \ \ \bar{x}_{n+1} = x_n - \frac{f(x_n)}{f(\bar{x}_n) - f(x_n)}(\bar{x}_n - x_n), \qquad (**)$$

bunda, x_n va $\bar{x}_n$ – lar ildizning kami bilan va ko‘pi bilan olingan qiymati. $x_0 = -2;\ \bar{x}_0 = -1$ deb

$$h_{1n} = \frac{f(x_n)}{f'(x_n)};\ h_{2n} = \frac{f(x_n)}{f(\bar{x}_n) - f(x_n)} \cdot (\bar{x}_n - x_n)$$

belgilash kiritib olamiz va hisoblashlarni jadvalda bajaramiz

n	x_n / $\bar{x}_n$	$\bar{x}_n - x_n$	x_n^2 / $\bar{x}_n^2$	x_n^3 / $\bar{x}_n^3$	$f(x_n)$ / $f(\bar{x}_n)$	$f'(x_n)$	$f(\bar{x}_n) - f(x_n)$	h_{1n} / h_{2n}
0	-2	1	4	-8	-1	16	9	-0,06
	-1		1	-1	8			-011
1	-1,94	0,05	3,7636	-7,3014	-0,0686	15,0508	0,7331	-0,0045
